

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SULAYMANOV SALAMAT AREPBAEVICH

**OROL DENGIZI VA AMUDARYO SUV YO'LLARI TARIXI (XIX asrning
70-yillari – XX asrning 80-yillarning birinchi yarmi)**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

Fan doktori(DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
Contents of abstract of the doctor of science (DSc) dissertation

Sulaymanov Salamat Arepbaevich

Orol dengizi va Amudaryo suv yo'llari tarixi (XIX asrning 70 yillari XX asrning 80 yillarning birinchi yarmi).....3

Сулайманов Саламат Арепбаевич

История водных путей Аральского моря и Амударьи (70 годы XIX – первая половина 80 годов XX века).....33

Sulaymanov Salamat Arepbaevich

History of the waterway of the Aral Sea and Amudari (70s of the XIX - first half of the 80s of the XX century).....63

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....67

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SULAYMANOV SALAMAT AREPBAEVICH

**OROL DENGIZI VA AMUDARYO SUV YO'LLARI TARIXI (XIX asrning
70-yillari – XX asrning 80-yillarning birinchi yarmi)**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus – 2023

Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc.Tar223 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu_info@edu.uz) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Koshanov Baxitbay Abdikerimovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Saribaev Maman Ktaybekovich
tarix fanlari doktori, dotsent

Mavlanov O'ktam Maxmasobirovich
tarix fanlari doktori, professor

Shadmanova Sanobar Bazarbaevna
tarix fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12. 2019.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «30» soat 14³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shaxri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy, Qoraqalpoq davlat universiteti tarix fakulteti. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49; e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 132 (raqam bilan ro'yxatga olingan (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy, Qoraqalpoq davlat universiteti tarix fakulteti. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «18» kuni tarqatildi.
(2023 yil «18» dagi 2 raqamli registr bayonnomasi)



R.B. Balliyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, tarix fanlari doktori, professor

H.M. Otegenov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD) dotsent

U.I. Abdullaev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
tarix fanlari doktori, dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Suv yo'llari azaldan turli xalqlarni o'zaro birlashtirgan eng muhim kommunikatsiya tarmoqlaridan biri hisoblangan. Dunyo xalqlari tarixida ayniqsa, suv yo'llari turli sivilizatsiyalar o'zining taraqqiyoti davomida erishgan ilm-fan, madaniyat va texnika yutuqlarini o'zaro almashinishida muhim rol o'ynagan. Garchi texnika taraqqiyoti natijasida ko'plab zamonaviy harakatlanish vositalari vujudga kelgan bo'lsa ham suv yo'llari va ulardagi transport vositalari dunyo iqtisodiyotida o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ayniqsa, hozirgi globallashuv sharoitida jahonda yuz berayotgan siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida suv yo'llari mavjud mamlakatlar taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa integratsiya jarayonlariga keng yo'l ochgan holda xalqlar o'rtasida o'zaro iqtisodiy va madaniy yaqinlashuvga imkon yaratib, turli hududlarda davlatlarning o'ziga xos rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Dunyo miqyosida suv yo'llarining shakllanishi va ularning sivilizatsiyalarni shakllanishidagi o'rni, suv yo'llari havzasida joylashgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, fan-texnika taraqqiyotida suv yo'llarining ahamiyati, suv havzalarida gidrotexnik inshootlarining shakllanishi va takomillashuvi jarayonlari, suv yo'llarining mintaqa ekologiyasidagi o'zgarishlarga ta'siri, Orol dengizi va Amudaryo havzasida Rossiya imperiyasi va sovet davrida olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning Orolbo'yi mintaqasi xalqlari turmush tarziga ta'sirini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga transport sohasi uchun zamonaviy ko'nikmalarga ega malakali kadrlarni tayyorlash, suv yo'llari tizimidan foydalanish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar va standartlarni zamon talabidan kelib chiqqan holda takomillashtirish, daryo transport tizimiga ilg'or tajribalarni joriy qilish orqali yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash jarayoniga innovatsion metod va vositalarni keng joriy etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llashni yanada ommalashtirish, iqlim o'zgarishi sharoitida yangi chaqiriq va xavf-xatarlarga moslashishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, jahon okeaniga chiqish va eng arzon transport turi bo'lgan suv transportini rivojlantirish bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.

Mustaqillik yillarida hududlar iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun ularning geografik joylashuvini inobatga olgan holda transport xizmatlarining sifat darajasini ko'tarish, xalqaro logistika va yuk tashish markazlarini tashkil qilish, suv yo'llaridagi transport vositalaridan foydalanish tizimini takomillashtirish, transport sohasini yanada rivojlantirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va innovatsiyalarni keng joriy etishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, iqtisodiyotda ishlab chiqarish qanchalik muhim bo'lsa, mahsulotni yetkazib berish ham shunchalik ahamiyatli. Ayniqsa, hozir dunyoda logistika muammolari avjiga chiqqan vaziyatda bu o'ta dolzarb hisoblanadi¹. Shu boisdan mustamlaka davri tarixini chuqur ilmiy tahlil etishni amaldagi holatini tahlil qilish, tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarni

¹ Халқаро транспорт йўлакларини ривожлантириш чоралари муҳокама қилинди // <https://president.uz/uz/lists/view/5415>

amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5647-son "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 1-fevraldagi PQ-4143-son "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2019-yil 6-martdagi PQ-4229-son "Transport va turizm obektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 4-maydagi PQ-4703-son "Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-maydagi PQ-4705-son "O'zbekiston Respublikasi transport vazirligining markaziy apparati tuzilmasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida" gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². XIX asrning 70-yillari – XX asrning 80-yillarning birinchi yarmida Orol dengizi va Amudaryo suv yo'llari tarixiga oid tadqiqotlar dunyoning qator yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Jahon suv transporti infratuzilmasi assosiatyasi (Bryussel, Belgiya), The International Institute for Applied Systems Analysis (IIASA) (Avstriya), Belarus davlat transport universiteti (Gomel, Belarus Respublikasi), Rossiya suv transporti akademiyasi (Moskva, Rossiya Federatsiyasi), Admiral S.O.Makarov nomidagi Davlat dengiz va daryo floti universiteti (Sankt-Peterburg, Rossiya Federatsiyasi), Sibir davlat suv transporti universiteti (Novosibirsk, Rossiya Federatsiyasi), "Markaziy Osiyodagi suv" mintaqaviy tadqiqot tarmog'i – CAWA (Germaniya), Qozoq-Germaniya universiteti (Olma-ota, Qozog'iston) kabilarda olib borilmoqda.

Jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida XIX asrning 70-yillari – XX asrning 80-yillarning birinchi yarmida Orol dengizi va Amudaryo suv yo'llari tarixiga oid quyidagi ilmiy natijalar olingan: barqaror navigatsiya infratuzilmasi variantlarini tanlash, loyihalash va baholashda iqlim o'zgarishi noaniqliklarini boshqarish usullari ishlab chiqilgan (Jahon suv transporti infratuzilmasi assosiatyasi, Belgiya); ekologik va ijtimoiy muammolarni hal qilishga ko'maklashadigan raqamli vositalar va texnologiyalarni joriy qilish yuzasidan

²Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шарҳи <http://www.academia.edu>, <https://www.pianc.org>, <https://iiasa.ac.at>, <https://www.bsut.by/science>, <https://awt-rut.ru>, <https://gumrf.ru/sveden/struct/centr/nc/btnvt>, <http://ssuwt.com/research/overview>, <http://www.cawa-project.net/>, <http://www.cawater-info.net/>, <https://dku.kz/ru/content/programm-view/?id=49> ва бошқа манбалар асосида тайёрланди.

yechimlar ishlab chiqilgan (The International Institute for Applied Systems Analysis (IIASA), Avstriya); energiya va resurslarni tejovchi texnologiyalardan foydalanishga asoslangan turli transport turlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalar yaratilgan (Belarus davlat transport universiteti, Belarus); Tovarlar tranziti hajmi va tezligini oshirish hamda multimodal logistika texnologiyalarini rivojlantirish uslublari ishlab chiqilgan (Rossiya suv transporti akademiyasi, Rossiya Federatsiyasi) ekipajsiz kemalar va obyektlarning samarali va muammosiz ishlashini ta'minlashga imkon beradigan navigatsiya va ma'lumotlarning amaliy yechimlari ishlab chiqilgan (Admiral S.O.Makarov nomidagi Davlat dengiz va daryo floti universiteti, Rossiya Federatsiyasi); Yuk va yo'lovchilarni kafolatli tashish uchun kerak bo'lgan kema qatnovi kanalining to'g'ri parametrlarini ta'minlash uchun daryoda chuqurlashtirishning zarur miqdorini aniqlash va asoslash uchun gidrologik tadqiqotlar olib borilgan (Sibir davlat suv transporti universiteti Rossiya Federatsiyasi), suv resurslarini boshqarishning barqaror strategiyasini ishlab chiqish uchun ilmiy asoslangan va ishonchli hududiy ma'lumotlar bazasini yaratilgan ("Markaziy Osiyodagi suv" mintaqaviy tadqiqot tarmog'i – CAWA (Germaniya), tabiiy resurslar sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish va ilmiy-texnik tarmoqni qo'llab-quvvatlash uchun platforma ishlab chiqilgan (Qozoq-Germaniya universiteti, Qozog'iston) .

Bugungi kunda dunyoning yirik ilmiy va strategik tadqiqot markazlari tomonidan XIX asrning 70-yillari – XX asrning 80-yillarning birinchi yarmida Orol dengizi va Amudaryo suv yo'llari tarixini o'rganishga doir qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: suv yo'llarining shakllanishi va ularning sivilizatsiyalarning shakllanishidagi o'rni, suv yo'llari havzasida joylashgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, fan-texnika taraqqiyotida suv yo'llarining ahamiyati, suv havzalarida gidrotexnik inshootlarining shakllanishi va takomillashuvi jarayonlari, suv yo'llarining mintaqa ekologiyasidagi o'zgarishlarga ta'siri, Orol dengizi va Amudaryo havzasida Rossiya imperiyasi va sovet davrida olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning Orolbo'yi mintaqasi xalqlari turmush tarziga ta'siri kabi masalalarni o'rganishdan iborat.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot doirasidagi adabiyotlarni mazmun-mohiyati, xarakteriga ko'ra 4 guruhga ajratib tahlil etish maqsadga muvofiqdir: 1) Rossiya imperiyasi davrida nashr etilgan asarlar. 2) Sovet davri adabiyotlari. 3) Mustaqillik yillarida nashr etilgan asarlar va tadqiqotlar. 4) Xorij tarixshunosligi.

Birinchi guruh adabiyotlarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosati, uning o'lka xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri atroflicha tahlil qilingan. Mazkur mualliflar hukumat rahbarlarini metropoliyaning Turkiston o'lkasi bilan savdo-sotiq aloqalaridagi ustunligini saqlab qolishga, siyosiy va harbiy ta'sirini kuchaytirishga chaqirganlar. Ular orasida N.I.Masalskiy, A.I.Dmitriev-Mamonov, M.A.Terentev, A.I.Shaxnazarov, I.I.Geyer, N.P.Verxovskiy, S.R.Konopko va boshqalarning asarlari alohida o'rin tutadi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi sovet davri adabiyotlarida Rossiya imperiyasining o'lkada olib borgan siyosati tegishli "mustamlakachilik" sifatida baholanib, ushbu jarayon bilan bog'liq masalalar nisbatan haqqoniy tarzda ifodalangan. Mavzuga bevosita daxldor va shu nuqtai nazarni ilgari surgan adabiyotlar A.Asatkin, I.Sevostyanov, A.P.Demidov, Ye.Fedorov, P.G.Galuzo, V.Lavrentev, A.V.Shestakov kabi mualliflar tomonidan yaratilgan.

Mustaqillik davri tarixshunosligi Orol va Amudaryo flotiliyasi faoliyatiga ham e'tibor qarata boshladi. Mualliflar asosan sovet davrida qishloq xo'jaligi bo'yicha olib borilgan siyosat, paxtachilikni rivojlanishining Orol dengizi havzasiga ta'siri, mintaqada yashaydigan aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar, yuzaga kelgan murakkab ekologik holat hamda uni bartaraf etish borasida O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillaridagi sa'y-harakatlari va boshqa mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalar tarixi masalalarini obyektiv yoritib berganlar. Ularda masalaning qisman tarixiy, asosan, iqtisodiy, geografik va ekologik jihatlariga ham e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya mavzusi doirasida xorijiy adabiyotlarda asosan Orol inqirozi va uning Orolbo'yi aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti ekologik holatiga ta'siri nuqtai-nazaridan ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu masalalar tadqiqotlarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi holatga ta'siridan kelib chiqib yondashilganligini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Umuman olganda, XIX asrning 70-yillari – XX asrning 80-yillarning birinchi yarmida Orol dengizi va Amudaryo suv yo'llari tarixi bilan bog'liq masalalarga qisman e'tibor qaratilgan. Ammo XIX asrning 70-yillari – XX asrning 80-yillarning birinchi yarmida Orol dengizi va Amudaryo suv yo'llaridagi sohaviy o'zgarishlar, suv yo'llarining xalq xo'jaligini rivojlantirishdagi o'rni, Xorazm vohasi va Qoraqalpog'istonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida suv yo'llarining ahamiyati bilan bog'liq jihatlar tarix nuqtai nazaridan kompleks tadqiq qilinmagan.

Tadqiqotning maqsadi XIX asrning 70-yillari – XX asrning 80-yillarning birinchi yarmida Orol dengizi va Amudaryo suv yo'llari tarixini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Turkiston general-gubernatorligi davrida Orol va Amudaryo flotiliyasi faoliyatini tahlil etish;

1917-1922-yillarda Amudaryo flotiliyasining o'lkadagi voqealarga siyosiy va harbiy ta'sirini o'rganish;

1923-1936-yillarda suv yo'llarining xalq xo'jaligini rivojlantirishdagi o'rnini yoritish;

1937-1941-yillarda Xorazm vohasi va Qoraqalpog'istonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida suv yo'llarining ahamiyatini ko'rsatib berish;

Ikkinchi jahon urushi yillarida Orol dengizi baliqchilarining g'alabaga qo'shgan hissasini ochib berish;

Urushdan keyingi yillarda xalq xo'jaligini tiklashda suv yo'llarining tutgan o'rnini yoritish;

Suv yo'llarining inqirozi va uning Orolbo'yi aholisi hayotidagi oqibatlarini tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida XIX asrning 70-yillari – XX asrning 80-yillarning birinchi yarmida Orol dengizi va Amudaryo suv yo'llari tarixi belgilangan.

Tadqiqotning predmetini XIX asrning 70-yillari – XX asrning 80-yillarning birinchi yarmida Orol dengizi va Amudaryo suv yo'llarining xalq xo'jaligini rivojlantirishdagi o'rni, Xorazm vohasi va Qoraqalpog'istonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida suv yo'llarining ahamiyati, inqirozi va uning Orolbo'yi aholisi hayotidagi oqibatlari bilan bog'liq jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada sivilizatsion yondashuv asosida tarixiy-xronologik, tarixiy-madaniy vorisiylik va izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil, induktiv va deduktiv kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Orol flotiliyasini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirilishi Amudaryo flotiliyasining transport kontoralari tomonidan Xiva xonligi va Amudaryo bo'limidan Orol portiga paxta, beda urug'i, teri, gazlama, qorako'l terisi va jo'n mahsulotlarini tashish hajmini ko'paytirishga imkon berganligi dalillangan;

XX asrning boshida Orol dengizida kema qatnovi boshlanishi dengiz bo'ylarida aholi manzilgohlari va unda yuzlab uylar qurilishiga turtki bo'lib, xususiy kemasozlik korxonalari, aksiyadorlik jamiyatlarini shakllanishi transport infrastrukturasi vujudga kelishiga xizmat qilganligi asoslangan;

Xorazm vohasi uchun Amudaryo flotiliyasining tashkil etilishi katta progressiv ahamiyatga ega bo'lib, u vohaga temir yo'lga chiqish imkonini berib, ushbu hududni Markaziy Rossiya bilan bog'lash bilan birga Amudaryo bo'limi shaharlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri xavfsiz yo'llar paydo bo'lishiga xizmat qilganligi asoslangan;

Amudaryo floti ham avvalo, hukumat manfaatlari yo'lida tashkil etilgan bo'lsa-da, Orol dengizi va Amudaryoda yuk tashish bilan harbiy flotiliyadan tashqari shaxsiy kemalarning egalari ham shug'ullanib, keyingi faoliyatida aholining manfaatlari yo'lida ish olib borganligi isbotlangan;

1941 yilda Ikkinchi jahon urushning boshlanishi bilan frontga ketgan dengizchilar va kema jamoasi o'rnini ayollar va yosh bolalar egallashiga qaramasdan Qoraqalpog'istondagi barcha xizmatga yaroqli kemalardan to'liq foydalanilib, qo'shinlar va yuklar daryo va dengiz transportida Amudaryo va Orol dengizi orqali tashilishi natijasida ushbu tarmoq O'zbekiston Respublikasi transporti va aloqasining muhim bo'g'iniga aylanganligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat o'lkashunoslik muzeylari fondlarini Orol dengizi va Amudaryo suv yo'llariga oid yangi ma'lumotlar bilan boyitishda foydalanilgan.

Yangi ilmiy qarashlar va yondoshuvlar asosida XIX asrning 70-yillari – XX asrning 80-yillarning birinchi yarmida Orol dengizi va Amudaryo suv yo'llari munosabatlari tarixi tahlil etilgan holda suv yo'llarining Orolbo'yi mintaqasi aholisi ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rniga oid ilmiy xulosalar chiqarishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda tarixiy jarayonlarni arxiv manbalari, rasmiy hujjatlar, mavzuga doir bo'lgan xorijiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilgan holda haqqoniy o'rganish, tarixiylik va xolislik tamoyillarini qo'llanilishi, olingan natijalarni vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati fanlararo sohalarda (fan tarixi, manbashunoslik, ekologiya, gidrologiya) tizimli tahlil asosida suv yo'llarining shakllanishi va uning tegishli hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid nazariy xulosalar bilan takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, natijalar Qoraqalpog'iston Respublikasidagi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun O'zbekiston va Qoraqalpog'iston tarixidan darslik, o'quv qo'llanma va multimedialar kompleksini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XIX asrning 70-yillari – XX asrning 80-yillarning birinchi yarmida Orol dengizi va Amudaryo suv yo'llari tarixiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Orol flotiliyasini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirilishi Amudaryo flotiliyasining transport kontoralari tomonidan Xiva xonligi va Amudaryo bo'limidan Orol portiga paxta, beda urug'i, teri, gazlama, qorako'l terisi va jun mahsulotlarini tashish hajmini ko'paytirishga imkon berganligiga oid ilmiy natijalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligining rejasi asosida Qoraqalpog'istondagi umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi pedagogik va o'lkashunoslik amaliyotlarida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligining 2022-yil 5-oktyabrdagi 17-04/1841-son ma'lumotnomasi). Natijada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining Qoraqalpog'istondagi suv yo'llari tarixi bo'yicha qarashlarini birlamchi manbalar asosida va ilmiy xulosalar asosida boyitishga imkon bergan;

XX asrning boshida Orol dengizida kema qatnovi boshlanishi dengiz bo'ylarida aholi manzilgohlari va unda yuzlab uylar qurilishiga turtki bo'lib, xususiy kemasozlik korxonalari, aksiyadorlik jamiyatlarini shakllanishi transport infrastrukturasi vujudga kelishiga xizmat qilganligiga oid natijalardan Qoraqalpog'istondagi transporti sohasidagi turizm dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniy me'ros va turizm vazirligining 2022-yil 25-oktyabrdagi 02-14/04-1890-son ma'lumotnomasi). Natijalar Orol dengizi va Amudaryo daryosi havzasidagi moddiy yodgorliklar joylashgan hududlarga turistlar tashrifini ko'paytirishga xizmat qilgan;

Orol dengizi va Amudaryo suv yo'llarining mintaqa xalq xo'jaligida tutgan o'rni, kemalar, qayiqlar va boshqa transport qurollarining tarixi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyida ekskurs darslari va ilmiy anjumanlarni tashkil qilishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyining 2022-yil 16-noyabrdagi №426-son ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi muzeyga tashrif buyuruvchilar va tinglovchilarni ona vatanga sadoqat, vatanparvarlik,

millatparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarni samarali tashkil qilish imkonini bergan.

Xorazm vohasi uchun Amudaryo flotiliyasining tashkil etilishi katta progressiv ahamiyatga ega bo'lib, u vohaga temir yo'lga chiqish imkonini berib, ushbu hududni Markaziy Rossiya bilan bog'lash bilan birga Amudaryo bo'limi shaharlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri xavfsiz yo'llar paydo bo'lishiga xizmat qilganligiga oid natijalardan Qoraqalpog'iston teleradiokampaniyasi "Qoraqalpog'iston" radiokanalining musiqiy ko'ngilochar dasturlar bosh muharririyati tomonidan "Tariximizni o'rganamiz" mavzusidagi turkum eshittirishlar senariylarini tuzish va tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston teleradiokampaniyasining 2022-yil 25-oktyabrdagi 05-22/443-son ma'lumotnomasi). Natijalar o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini yanada yuksaltirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Tadqiqot kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot hajmi 228 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslanib, ishning maqsadi va vazifalari, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Mavzuning nazariy metodologik asoslari, manbalari va tarixshunosligi**" deb nomlangan. Darhaqiqat, tashkil etilgan daryo transporti barcha transport turlaridan eng arzoni bo'lganligini eslash joizdir. Shu boisdan qadimdan ushbu transport turidan keng foydalanib kelingan. O'zbekiston Respublikasi o'zining jo'g'rofiy joylashuvi bo'yicha dengiz yo'lga to'g'ridan to'g'ri chiqa olmaydigan jahondagi 45 ta davlat qatorida turadi. Suv yo'llariga to'g'ri chiqa olmaslik O'zbekiston iqtisodiy-savdo imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklaydi. Shu maqsadda mamlakat dengiz portlariga chiqish uchun SHHT makonida transport jihatidan o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish zarurligiga e'tibor qaratib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining qo'llab-quvvatlashi ostida Toshkent shahrida Mintaqalararo o'zaro bog'liqlik markazini tashkil etish

tashabbusini ilgari surdi³. So'nggi paytlarda olimlar va keng jamoatchilikning ushbu muammoga qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Mavzu yuzasidan uning nazariy-metodologik jihatlarini yoritishda respublikada qabul qilingan qonun va hujjatlar ham muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasidagi suv yo'llarida ham transport qatnovini tashkil qilish bo'yicha bir qator qonun hujjatlari ishlab chiqilgan va ushbu me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasidagi daryo va boshqa suv havzalarida yo'lovchi va yuk tashish tizimi O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi 1993 yil 6 maydagi 837-XII-son Qonuni asosida belgilab qo'yilgan. Ushbu qonunning XVIII bobi "suv obyektlaridan suv transporti ehtiyojlari uchun foydalanish"ga bag'ishlangan. Ushbu qonundan kelib chiqqan holda suv yo'llaridan foydalanish tartibi ishlab chiqilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-fevraldagi 106-son "O'zbekiston Respublikasining ichki suv transporti ustavini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilingan.

Orol flotiliyasi faoliyatining tarixiy tajribasini o'rganish bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda tranzit transport koridorini yaratishni ko'zlamogda, bu esa ularga dengiz portlariga chiqish va qadimiy Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash imkonini beradi.

O'zbekistonning kommunikatsiya va transport bilan ta'minlanishida «TASIS» dasturi doirasidagi «Traseka» loyihasining amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi, bu loyiha O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Gruziya orqali Qora dengiz portlariga o'tadigan transkavkaz magistralining shakllanishini nazarda tutadi⁴.

Mavzuga doir manbalar katta hajmga ega bo'lib, ularni ichki va tashqi tahlili muammoning yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina ma'lumotlar Orol dengizi va u atrofida amalga oshirilgan suv yo'llari hamda undagi transport vositalari haqida hikoya qiladi. Orol dengizi haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlar zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da uchraydi. Antik davr tarixchisi Klavdiy Ptolomey ham Orol dengizi haqida ma'lumotlar yozib qoldirgan. U So'g'd tog'laridan oqib Kaspiy dengiziga quyadigan Oks bilan Yaksart deltasining oralig'idagi Oksian ko'lini qayd etib o'tgan. Ko'l uning xaritasida ham ko'rsatilgan⁵.

Ta'kidlash lozimki, Orol dengizini har tomonlama o'rganish va geografik jihatdan batafsil tadqiqotlar olib borish XVI asrdan so'ng boshlandi.

Orol dengizini sayohatchilar har asrda xaritaga tushirib kelgan. Xususan, 1658-yili A.Jenkinson, 1664-yili gollandiyalik Nikolay Vitsen, 1723-yili Daliliya, 1734-yili Kirilov, 1741-yili Muravin, 1834-yili Levshin va boshqalar shular jumlasidandir⁶.

³ www.president.uz

⁴ <http://www.traceca-org.org> > o-traseka > istorija-traseka

⁵ Арал тағдыры. – Алматы: Қазақстан, 1989. 20-б.

⁶ Камалов С Каракалпаки в XVIII-XIX вв. (К истории взаимоотношений с Россией и среднеазиатскими ханствами). – Ташкент: Фан, 1968.46-47-66.

Janubiy Orol bo'ylarini o'rganish maqsadida XVIII-XIX asrlarda Xiva hududiga ko'p elchi, sayohatchilar kelib xonlikdagi ahvol haqida, ularning kasbi, iqtisodiy sharoiti to'g'risida ko'plab ma'lumotlar yig'ishga muvaffaq bo'lganlar. Ular orasida Gladishev, Muravin, Richkov, Danilevskiy, Maksheev, Butakov, Zalesov, Mayer, Galkin, Kun, Veselovskiy alohida o'rin tutadi.

Tadqiqot bo'yicha ko'plab arxiv manbalari mavjudki, ularni ham manbaviy tahlili muhim sanaladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi R-244-fond, 1-ro'yxat, 58-ishda O'rta Osiyo kemachiligi bo'yicha materiallar aks etgan bo'lib, xususan, O'rta Osiyo kemachiligining Orol agentligi tarkibidagi kemalarning nomlarini o'zgartirish to'g'risida buyruq berilganligini ko'rish mumkin. Unga ko'ra "Chernyaev" motorli qayig'i "Vodnik" deb, "Kutuzov" kemasi "Jelednodorojnik"ka, "Skobelev" yelkanli qayig'i "Qoraqalpoq" deb o'zgartirilganligi ma'lum qilinadi⁷.

Yoki yana bir hujjatda O'rta Osiyo kemachiligi bo'yicha 1925-yil 1-mart №78 sonli buyrug'i bilan Amudaryo flotiliyasi kemalarini ta'mirdan chiqarish va O'rta Osiyo respublikalari iqtisodiyotini jonlantirishda Amudaryo suvchilarining ishga bo'lgan munosabatini oshirish maqsadida 1925-yilning navigatsiya mavsumida kemalarning uzluksiz suzishini ta'minlash topshirilganligi hikoya qilinadi⁸.

Bundan tashqari davriy matbuot materiallari mavzuning yoritishda muhim o'ringa ega. Jumladan, "Turkestanskije vedomosti" gazetasining 1874-yilgi 8-oktyabr sonida Amudaryo, Sirdaryo va Janadaryo suv yo'lining ahamiyati haqida keng to'xtalgan. Amudaryoning kichik hajmdagi qayiqlarning suzishi uchun qulayligi va Xiva qayiqlarining ishlanish texnologiyasi, ularni yasashda foydalaniladigan materiallar haqida so'z boradi⁹.

Shuningdek, davriy matbuotda keyingi davrda ham Orol va Amudaryo suv yo'llari haqida materiallar berib borildi. Jumladan, "Qizil O'zbekiston", "Vodnik", "Qizil Qoraqalpog'iston", "Sovet Qoraqalpog'istoni", "Sovetskaya Karakalpakiya", "Mo'ynoq baliqchisi" gazetalari sahifalarida mavzuga oid materiallarni uchratish mumkin.

Shuningdek, mavzuni yoritishda og'zaki tarix materiallari ham o'z o'rniga ega. Bunda Orol va Amudaryo suv yo'lida xizmat qilgan kema kapitanlari, darg'alar va Xo'jayli, Qipchoq va Mo'ynoq bandargohida ishlagan ishchilar xotiralari yozib olingan. Qoraqalpog'iston tarixi va madaniyati bo'yicha yetuk mutaxassis professor Qalli Aymbetov¹⁰, davlat va jamoat arbobi, "El yurt hurmati" ordeni sohibi Qallibek Kamolov¹¹, asli mo'ynoqlik davlat va jamoat arbobi Iskandar Shagilov, uchuvchi Bayron Tajenov, qurilish sohasi faxriyi Kengesbay Qunnazarov¹², kema kapitani o'g'li Maksudbay Yakubov¹³, akademiklar Marat

⁷ ЎМА, Р-244 фонд, 1-руйхат, 58-иш, 67-варак.

⁸ ЎМА, Р-9 фонд, 1-руйхат, 2905-иш, 243-варак.

⁹ Туркестанские ведомости. 1908. №212,213,219,220,221.

¹⁰ Айымбетов Қ. Өткен күнлерден елеслер.- Нөкис: Қарақалпақстан, 2008. 81-85 бб.

¹¹ Камолов К. Эл хизматида.(хотиралар) – Нукус: Билим, 2021. 484-б.

¹² Қунназаров К. Нөкис қаласының қурылыу тарийхы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2003. 26-б.

¹³ 2003 йил дала ёзувлари №1.

Nurmuxammedov¹⁴, Sabir Kamalov¹⁵, Jumanazar Bazarbaev¹⁶ va boshqalarning xotiralari muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot doirasidagi adabiyotlarni mazmun- mohiyati, xarakteriga ko'ra 4 ta guruhga ajratib tahlil etish maqsadga muvofiqdir: 1) Rossiya imperiyasi davrida nashr etilgan asarlar. 2) Sovet davri adabiyotlari. 3) mustaqillik yillarida nashr etilgan asar va tadqiqotlar. 4) Xorij tarixshunosligi.

XIX asr 20-30 yillarida (1819-1820 yy.) kapitan Nikolay Muravin boshchiligidagi guruh Amudaryo tarmog'i Uzboy bo'ylab Xivaga sayohatni amalga oshirgan. Uning tadqiqotida Turkmaniston va Xiva yerlarining holati, sug'orish inshootlari, turkman, o'zbek, qoraqalpoqlarning tarixi, etnografiyasi ijtimoiy tuzumi, qal'alar, hunarmandchilik, savdo haqida ma'lumotlar o'rin olgan¹⁷. Shuningdek, Orol bo'yi yerlari tarixini o'rganishda dengizchi sayohatchi A.I.Butakovning 1848-1849-yillarda Orol dengizini geografik jihatdan tadqiq qilgan.

1858-yilda Xiva va Buxoroga Rossiya elchilari missiyasining uyushtirilishida Orol flotiliyasining roli elchilarning asarlarida aks ettirilgan. A.V.Kaulbars, A.L.Kun, Rizo Kuli Mirzolarning bevosita 1873-yilda Xivaning zabt etilganidan keyin yaratgan asarlari bebaho tarixshunoslik manbalari hisoblanadi¹⁸.

1875-yilda N.A.Severtsov tomonidan Turkiston o'lkasi general-gubernatori K.P.Kaufmanga yuborilgan "Janadarya oqimini tiklash orqali Sirdaryo va Amudaryo o'rtasidagi yo'lni qurish haqida"gi maktubi katta qiziqish uyg'otadi. Janubiy Orolbo'yini tarixiy va etnografik jihatdan o'rganishda Cho'qon Valixanovning asarlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik V.V.Bartold ham Orol dengizi va Amudaryoning quyi oqimi haqida ma'lumotlar to'plamini taqdim etgan¹⁹.

Ikkinchi guruhga kiruvchi XX asrning 20-30-yillarida chop etilgan adabiyotlarda Rossiya imperiyasining o'lkada olib borgan siyosati tegishlicha "mustamlakachilik" sifatida baholanib, ushbu jarayon bilan bog'liq masalalar nisbatan haqqoniy tarzda ifodalangan. Mavzuga bevosita daxldor va shu nuqtai nazarni ilgari surgan adabiyotlar A.Asatkin, I.Sevostyanov, A.P.Demidov, Ye.Fedorov, P.G.Galuzo, V.Lavrentev²⁰, A.V.Shestakov kabi mualliflar tomonidan yaratilgan.

Sovet davri tarixshunosligida A.M.Komkov tomonidan Orol va Amudaryo tarixi bo'yicha kartografik manbalar talqin qilinadi, bu manbalar I.Muravin

¹⁴ Эмиўдэрья. 1998. 3-сон, 5-11 бб.

¹⁵ Камалов С. Омирим сабақларынан... (еске түсирийўлери). Баспаға таярлаган Г.Есемуратова.- Нөкис Илим, 2019. 13-б.

¹⁶ Базарбаев Ж. Жэбирленген халықтың тарийхының жаңа бети ашылды.- Нөкис: Билим, 2018. 64-б.

¹⁷ Михалева Г.А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург. – Ташкент: Фан, 1982. 77-б.

¹⁸ Тилеумуратов М. Исторические и культурные связи каракалпаков с Россией и Башкирией в XVIII-начале XX вв. – Нукус, 1993. 71-б.

¹⁹ Жалменова О.П. Академик В.В. Бартольд о каракалпаках и Каракалпакии // Вестник КК ФАН Узб. ССР. 1990, №3. 56-б.

²⁰ Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари: чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. Лойиҳа раҳбари, маъсул муҳаррир Д.А.Алимова.-Тошкент :Шарқ, 2001.-153-б.

(XVIII) va A.I.Butakov (1849)larning yo'nalishi bo'yicha olingan bo'lib, XX asrning 30 yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. 1935-yilda Rossiyaning Xiva xonligini zabt etish tarixi haqidagi manbalar, Amudaryo quyi oqimidagi xalqlarning xo'jaligi to'g'risidagi qimmatli materiallar ilmiy muomalaga kiritildi. P.P.Ivanovning qoraqalpoq-qozoq-xiva munosabatlarining tarixi, Orol va Amudaryo flotiliyasi tarixi haqidagi asarlari katta qiziqish uyg'otadi²¹.

Akademik S.K.Kamalov o'zining "Karakalpaki v XVIII-XIX vv" asarida Orol flotiliyasi faoliyatiga e'tibor qaratadi, 1858-1859-yillardagi Qo'ng'irot qo'zg'oloni tarixi bo'yicha muhim hujjatlarni ilmiy muomalaga kiritadi, bu qo'zg'olonning borishini A.I.Butakov kuzatgan edi. Uning ma'lumot berishicha, qoraqalpoq baliqchilari Orol flotiliyasining kapitani Sitnikovga uning Oroidan Qo'ng'irot yo'nalishida yurishiga yordam bergan²².

Orol flotiliyasi tarixi, shuningdek, R.Kosbergenov va U.X.Shalekenovlarning²³ asarlarida ham e'tirof etilgan. M.Yu.Yuldashev o'zining bir maqolasini Orol flotiliyasi tarixiga bag'ishladi. Maqolada Orol flotiliyasi faoliyatini ta'riflashdan tashqari, muallif Amudaryo quyi oqimida yashovchi xalqlarning baliqchilik va XX asrning 30-yillaridagi kemachilik sanoatining tuzilishi haqida ayrim hujjatlarni ilmiy muamolaga kiritdi. Orol flotiliyasi, baliqchilik masalalari, shu qatorda A.S.Sodiqovning maqolalarining ham obyekti bo'ldi²⁴.

Orol va Amudaryo suv yo'llari masalasiga oid izlanishlar Jumaboy Ubbiniazovning tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan²⁵.

T.G.Tuxtametovning²⁶ ta'kidlashicha, 1917-yil arafasida Amudaryo bo'limida baliqning bir qismi mahalliy aholi tomonidan iste'mol qilinsa, katta qismi kemalarda dastlab Aralskka, u yerdan Rossiyaga jo'natilar edi. Baliqchilikning, Orol va Amudaryo flotiliyasining ayrim sahifalari xotiralarda aks ettirilgan. Orol va Amudaryo flotiliyasining 1917-1920-yillardagi tarixi

²¹ Материалы по истории каракалпаков // Труды Института востоковедения АН СССР.-М.-Л., 1935; Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. Л., 1940, Иванов П.П. Новые данные о каракалпаках// Советское востоковедение. Т.III. - М.-Л., 1945. 67-89-66.

²² Камалов С.К. Каракалпаки в XVIII – 60-х годах XIX в. К истории взаимоотношений в России и среднеазиатскими ханствами. Ташкент, 1968, Камалов С. XVIII эсирдеги каракалпак-рус катнасыклары.- Нөкис, 1966; Камалов С., Уббиниязов Ж., Кошанов А. Из истории взаимоотношений каракалпаков с другими народами Средней Азии и Казахстана в XVII-начале XX вв. – Ташкент. 1988, Камалов С. Каракалпаклардын халық болып қәлиплесіуі ҳәм оның мәмлекетлигиниң тарийхынан. – Нөкис. 2001.

²³ Шалекенов У.Х. Казахи низовьев Амударьи - Ташкент: Фан,1966.

²⁴ Садыков А.С. Города Хивинского ханства в конце XIX – начале XX вв.// Материалы по истории и археологии Узбекистана. Научные труды Таш.ГУ. Вып. 441.- Ташкент, 1973, Садыков А.С. Экономические связи Хивы с Россией во второй половине XIX- начале XX вв.- Ташкент,1965.

²⁵ Уббиниязов Ж. Каракалпакстан XX эсирдиң басында.-Нөкис: Каракалпакстан, 1972; Уббиниязов Ж. Каракалпакстан биринши рус революциясы жылларында.- Нөкис: Каракалпакстан, 1966.

²⁶ Тухтаметов Т.Г. Амударьинский отдел (Социально-экономическое и политическое значение для Хорезмского оазиса).- Нукус: Каракалпакстан, 1977; Жалилов А. Из истории каракалпаков XIX- начала XX вв. -Ташкент, 1986.

Ya.M.Dosumovning²⁷ monografiyalarida, J.Ubbiniyazovning maqolasida o'z aksini topdi²⁸.

Orol va Amudaryo flotiliyasi, Amudaryo kemachiligi tarixi, shuningdek, Xiva xonligining Xorazm tarixshunosligidagi harbiy-siyosiy kontkestida ham o'rganildi. So'nggi yillarda bu mavzu bo'yicha S.R.Davletov²⁹, Ya.A.Karimov³⁰, R.B.Anyozovlar³¹ suv yo'li masalasiga e'tibor qaratdi.

Mustaqillik davri tarixshunosligida Orol va Amudaryo flotiliyasi faoliyatiga ham e'tibor qarata boshladi. Xiva xonligining xorijiy tarixshunosligini, Orol va Amudaryo flotiliyasi tarixshunosligini batafsil o'rganish endigina shakllanmoqda.

Orol va Amudaryo flotiliyasining faoliyati "Qoraqalpog'istonning yangi tarixi"da o'z aksini topdi. S.K.Kamalov³², K.S.Saribaev³³, B.Koshanov³⁴, Ballieva R³⁵., Ya.A.Abdullaeva³⁶ M.K.Saribaev³⁷, M.A.Karlibaev³⁸, A.M.Djumashv³⁹,

²⁷ Досумов Я.М. Очерки истории Каракалпакской АССР (1917-1927).- Ташкент: Изд-во АН Узб, 1960; Досумов Я.М. Гражданская война в Каракалпакии (1918-1920 гг.) - Нукус: Каракалпакстан, 1975.

²⁸ Уббиниязов Ж. Туслик Аралда балык аулаушылык хэм балык санаатын рауажландырудын гейпара мэселелери. - Нокис: ККМБ, 1961; Уббиниязов Ж. От кустарщины до современной промышленности.- Нукус: Каракалпакстан,1971.

²⁹ Давлетов С.Р. Шўролар зўри ва Орол шўри// Гулистон. 2004. 3-сон.-22-23-66; Уша муаллиф. XX аср иккинчи ярмида совет ҳукуматининг Ўзбекистонда юритган иктисодий сиёсатининг ижтимоий-экологик жиҳатлари// Илм сарчашмалари. 2009. 5сон, Б.4-6; Уша муаллиф. Некоторые вопросы социально - экологической ситуации в Узбекистане во второй половине XX века// Вестник ККОАН РУ. 2009._ №4. Б.83-85; Уша муаллиф. Проблема Арала и Приаралья: вчера и сегодня//Молодой учёный. Казань, Российская Федерация, 2014. - №2 (61). - 634-636-66.

³⁰ Каримов Я.А. Марказий Осиё коммуникациялар тизимида сув йўлларининг тўтган ўрни. (кадимги давр ва ўрта асрлар). Тарих фан.бўйича фал.док. (PhD) дисс. автореферати. - Нукус 2020.

³¹ Анёзов Р.Б. Марказий Осиёнинг карвон йўларида хизмат кўрсатиш тизими: шаклланиши ва ривожланиш омиллари (IX-XIX асрлар). Тарих фан.бўйича фал.док. (PhD) дисс. автореферати. - Нукус 2021.

³² Камалов С.К. Каракалпаки в XVIII-XIX веках. К истории взаимоотношений с Россией и среднеазиатскими ханствами.-Ташкент: Фан, 1968. 328-6; Камалов С.К., Уббиниязов Ж., Кошанов А. Из истории взаимоотношений каракалпаков с другими народами Средней Азии и Казахстана в XVII- начале XX вв. Ташкент: Фан, 1988. 108-6; Камалов С. Расцвет науки Каракалпакии// Вестник ККФАН УзССР, 1964. № 3. 3-8 бб; Камалов С. О развитии исторической науки в Советской Каракалпакии // Общественные науки в Узбекистане. 1967. № 11. 39-43 бб; Камалов С. Развитие общественных наук в Каракалпакской АССР // Общественные науки в Узбекистане. 1973. № 1. 20-29 бю.

³³ Сарыбаев К. История орошения Каракалпакстана с конца XIX в. до наших дней.-Нукус,1995;

³⁴ Кошанов Б.А. Большевики в Туркестане. 1917-1922 гг. доктрина и реальность.— Тарих фанлари доктори дисс. автореферати. — Москва, 1994; Кошанов Б.А., Сейтназаров М.С. Революция? Вторжение? События в Хивинском ханстве (1919-1920 гг.).— Нукус: Билим, 1997; Кошанов Б., Джумашев А. Зарубежная и отечественная историография истории Туркестана, Хорезма и Каракалпакстана в первой четверти XX века. — Нукус, 1997.

³⁵ Балыева Р.Традиционное природопользование Каракалпакии. – Нукус: Каракалпакстан, 1996; Уша муаллиф. Этнокультурные особенности природопользования народов Приаралья (в конце XIX и начале XX века). - М., 2003; Уша муаллиф. Проблемы природопользования в Каракалпакии в советский период и их последствия // Материалы научной конференции «Ломоносовские чтения». – М., 2002; Уша муаллиф. Этнокультурные аспекты экологических проблем Приаралья // Актуальные проблемы современной науки. - №1. - М., 2002; Уша муаллиф. Экологический кризис и проблемы изучения традиционного природопользования // Ўзбекистон география жамияти ахбороти.– Ташкент, 2008. 31-жилд.

³⁶ Абдуллаева Я.А. Қарақалпақстан ҳаял-қызлары екинши дунья жузлик урыс жылларында// Ўзбекистан Республикасы Илимлер Академиясы Қарақалпақстан белими Хабаршысы. 2003. №5. 72-73-66; Уша муаллиф. Қарақалпақстан ҳаял-қызлары: Кеше хэм бүгин. XIX асирдин ақыры хэм XX асир басы. – Нокис, 2010. 224 б.; Уша муаллиф. Қарақалпоғистон хотин-қызлари тарихшунослиги. (XIX асрнинг сўнги чораги - XX аср. – Нукус, 2017. 40 б.

³⁷ Сарыбаев М.К. Из истории хлопководства Каракалпакстана в конце XIX – начале XX века. – Ташкент: Изд. Нац. библ. Узбекистана им. А.Навои, 2006; Уша муаллиф. Политика хлопковой монокультуры советской власти в Каракалпакстане и ее последствия (1917 – 1990 гг.). – Ташкент: Изд. Нац. библ. Узбекистана им. А.Навои, 2006; Уша муаллиф. Об экономических преобразованиях в хлопковом комплексе Республики Каракалпакстан (1991 – 2001) // Общественные науки в Узбекистане.- Ташкент, 2006. - №6; Уша

S.U.Nurjanov⁴⁰, M.K.Seytimbetov⁴¹, K.T.Tangirbergenova⁴², A.R.Qudiyarov⁴³, S.S.Saymanov⁴⁴, B.M.Bekimbetov⁴⁵ va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari Orol va Amudaryo flotiliyasi tarixini yanada boyitdi.

Ikkinchi bob «**Turkiston general gubernatorligi davrida Orol va Amudaryo flotiliyasi faoliyati**» deb nomlanib, Janubiy Orol bo'yida Rossiya imperiyasining harbiy flotining shakllanishi va undan ko'zlangan maqsad, Orol va Amudaryo flotiliyasining faoliyatiga bag'ishlangan. 1848-yil 18-fevralda Orenburg o'lkasining general-gubernatori V.A.Obruchev imperatorga 1848-yilning yozida Orol dengizini batafsil o'rganish mo'ljallanganligi haqida yozadi.

Sirdaryoda 1853-yili ilk paroxodlar suvga tushirildi, "Perovskiy" paroxodi va "Obruchev" suvga tushirilishi bilan Orol flotiliyasining faoliyati boshlandi. 1861-yilda Orol flotiliyasi "Orol" va "Sirdaryo" paroxodlari bilan to'ldirildi, bu kemalar Angliyada buyurtma qilinib, so'ngra Kazalinskga yetkazildi. Qo'qon va Buxoro xonliklari bilan bo'lgan janglarda (1864-68 yy) "Perovskiy" va "Obruchev" kemalari asosan faqat harbiy yuk tashishni amalga oshirgan, shuningdek, 1873-yilda ikkalasi ham Xiva yurishida qatnashgan⁴⁶. 1862-1872-yillar oralig'ida flotiliya yana to'rtta chet elda ishlab chiqarilgan paroxodlar,

муаллиф. Репрессивная политика советской власти в Каракалпакии в период коллективизации. // Тошкент давлат юридик институти илмий-тадқиқотлар ахборотномаси. – Тошкент, 2006. – №6; Уша муаллиф. Хлопковая политика советской власти в Каракалпакии в 1965 – 1985 гг. // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 2008. – №1; Уша муаллиф. Курс на закрепление однобокой хлопковой направленности сельского хозяйства Каракалпакстана в 1954 – 1958 гг. // Научный мир Казахстана. – Астана, 2008. – №2.

³⁸ Карлыбаев М.А. Медресе в Каракалпакии в XIX – нач. XX вв. Нукус: Билим, 2002. – 84 б; Уша муаллиф. К истории ислама у каракалпаков XVIII-XIX вв./ Арало-Каспийский регион в истории и культуре Евразии. Материалы II-Международной научной конференции. Алматы-Актобе, 2011; Уша муаллиф. Город Чимбай как культурный и религиозный центр каракалпаков/ Город и городская культура в Южном Приаралье: история и перспективы. Нукус: Илим. 2017.

³⁹ Джумашев А.М. История переселенцев 1930-х годов (часть I)// Вестник ККО АН РУз, 1995, №1, -106-110-бб; Уша муаллиф. История переселенцев 1930-х годов (часть II)// Вестник ККО АН РУз, 1995, №4, -94-97-бб; Уша муаллиф. Земельно-водные реформы XX века в Каракалпакстане (страницы истории)// Вестник ККО АН РУз, 2003, №5, 50-51-бб; Уша муаллиф. Сотрудничество Центральной Азии в решении проблем Арала: история и современность/ Международная конференция «Новый Узбекистан и региональное партнерство в Центральной Азии», Ташкент, 18 октября 2021 г.

⁴⁰ Нуржанов С.У. Каракалпакская автономная область: история в источниках.- Нукус: Илим, 2014; Уша муаллиф. Новостная пропаганда в годы Второй мировой войны: особенности и последствия// Вестник ККОАН РУз, 2016, №3, 109-112-бб; Уша муаллиф. Трансформация социальных установок земельно-водных реформ XX века в Каракалпакстане (страницы истории)// Вестник ККО АН РУз, 2003, №5, 50-51-бб; Есбергенов Х., Нуржанов С.У. Сын Отечества. - Нукус, Илим, 2018.

⁴¹ Сейтимбетов М. Қарақалпақстанда темир жол қурылысының тарихынан.- Нөкис. 1993; Уша муаллиф. Кубла Арал аймағындағы суў жоллары хэм байланыс қураллары// Вестник ҚМУ 2021, № 3; Уша муаллиф. Қарақалпақстан аймағында жол қатнастары хақында тарихый мағлыұматлар// Вестник ККОАН РУз, 2022. № 1.

⁴² Тангирбергенова К. Некоторые аспекты историко-культурных взаимосвязей каракалпаков с Россией в XIX - начале XX века// Международный научный журнал «Universum: общественные науки» Москва, 2020, №6(66),3-8-бб; Уша муаллиф. Из истории возникновения и развития хозяйства и материальной культуры каракалпаков в конце// Вестник ҚМУ. 2022, № 2.

⁴³ Кудияров А.Р. Торгово-культурные связи г.Хивы с г. Чимбаем// Вестник ККОАНРУз. 2000. №4; Уша муаллиф. История города Чимбая (XIX-начало XX вв). – Нукус: Илим, 2019.

⁴⁴ Сайманов С. Русские миссии посольства в Хивинском ханстве(XVIII-первая половина XIX вв.)// «Восток-Запад: аспекты взаимодействия». Ташкент, 2006, 161-164-бб.

⁴⁵ Бекимбетов Б.М. История общественно-политического движения за спасение Аральского моря (1960-1990-е гг.). – Тарих фанлари номзоди дисс. ... автореферати. – Нукус, 2006;

⁴⁶ ЎМА, И-715-фонд, 1-рўйхат, 57-иш, 109-варак.

suzuvchi qayiqlar va umumiy yuk ko'tarish quvvati 55,800 funt bo'lgan to'qqiz barja va 22 ta qurol bilan to'ldirildi.

1873-yil 27-aprelda Xiva yurishida ishtirok etgan Orol flotiliyasi tarkibida ikkita: "Samarqand" va "Perovskiy" paroxodlari va uchta barja bor edi. Ekipaj tarkibida 8 nafar ofitser, 1 ta shifokor, 259 ta matros, jumladan, ikkita topograf ham bo'lgan⁴⁷.

1874-yilda "Golos" gazetasi Chimboydagi muxbirining ma'lumotini chop etadi. Unda shunday deyiladi: "25-iyul kuni kunduzi soat 4 da "Perovskiy" paroxodi Nukusga keldi va mahalliy aholini hayratda qoldirdi". Frantsuz geografi Elize Reklyu ta'kidlaganidek, "shu lahzadan boshlab har qanday qiyinchiliklarga va paroxodlar suzishiga qiynaladigan kuchli oqimga qaramasdan quyi Amu bo'ylab kema qatnovi to'xtamadi"⁴⁸.

Amudaryo suv yo'lida esa asosan xivalik qayiqchilar harakatlandi. Shuningdek, Chorjo'ydan yuqoriga qarab buxorolik qayiqlar suzdi. O'rtacha qayiqning hajmi uzunligi 40-60 pud eniga 7-10 pud, salmog'i 300-400 pud atrofida bo'lgan. Buxoro qayiqlari ikki hajmli bo'lib kattasi 1500 pud yuk tashish imkoniga ega edi. 1876-yilning o'zida Amudaryoda taxminan 50 ta Buxoro qayiqlari va 220 ta Xiva qayiqlari suzdi.

Orol dengizi qirg'oqlarida yuzlab baliqchilik xo'jaliklari paydo bo'lib, ularda Rossiya, Ukraina, Moldova, Xarkovning ko'plab shaharlaridan kelgan ishchilar, Qora va Boltiq dengizidan kelgan mehmonlar ishladilar. Ular orasida mahalliy ishchilar bilan muloqotda bo'lgan inqilobiy fikrli ishchilar ham bor edi. Tarixchi A. Tureevning tadqiqotlariga ko'ra, 1913-yilda Orol dengizining janubiy qirg'og'ida 2636 nafar baliqchi mehnat qilgan⁴⁹.

Amudaryo sohilidagi mustamlakaga aylantirilgan tumanlarda Rossiya ta'sirini ta'minlash uchun 1880-1888 yillarda Kaspiyorti temir yo'li (Kaspiy dengizining sharqiy sohillaridan Samarqandgacha) qurildi. Mazkur harbiy temir yo'l qurilishi, daryodagi harbiy garnizonlarning temir yo'l liniyasi bilan aloqasini ta'minlash, harbiy va tijorat yuk tashishlarni amalga oshirish uchun Rossiya transport-kommunikatsiya tarmoqlarini qurishga kirishildi. 1887-yili Amudaryo harbiy flotiliyasiga asos solinib, Amudaryo kemachiligining rivojlanishiga ta'sir o'tkazdi⁵⁰. 1887-yilda Peterburgdagi "Buts va Pompey" nomli ingliz firmasiga ikkita paroxod va ikkita barjaga buyurtma berildi. Paroxodlarga "Sar" va "Saritsa", barjalarga — "Peterburg" va "Moskva" degan nom berildi. 75 sm. gacha suvga botadigan bu paroxodlar korpusining uzunligi 45 metr edi⁵¹.

Ta'kidlash lozimki, Amudaryo flotiliyasi boshqarmasi va asosiy porti Chorjo'yda joylashgan edi. Amudaryo flotiliyasining ochilishi bilan daryoda katta kemalar va paroxodlar qatnovi yo'lga qo'yildi. Bu holat Amudaryo suv yo'liga Rossiya harbiy – siyosiy guruhlarini e'tiborining katta bo'lganligini ko'rsatadi. "1887-yilda Amudaryoda dastlab Chorjo'ydan Karkigacha, so'ngra Termizgacha

⁴⁷ ЎМА, И-2740-фонд, 2-рўйхат, 50-иш, 16-варақ.

⁴⁸ В Нукусе.//Голос,1874. №231

⁴⁹ Төреев А. XIX-эсирдин акыры XX эсирдин басында каракалпак үлкеси дийханлары хәрекети.- Нөкис Қаракалпакстан, 1991. 38-б.

⁵⁰ Досумов Я.М. Очерки истории Каракалпакской АССР - Т. 1960, 35-б.

⁵¹ ЎМА, И-2740-фонд, 2- рўйхат, 50- иш, 23- варақ.

kema qatnovi yo'lga qo'yildi. 1888-yilda "Sar", "Saritsa" kemalari va "Moskva", "Peterburg" barjalari (10 ming pud yuk tashish quvvati bilan) Petro-Aleksandrovskdan Karkigacha bo'lgan uchastkada suza boshladi⁵².

Orol dengizi va Amudaryoda yuk tashish bilan harbiy flotiliyadan tashqari shaxsiy kemalarning egalari ham shug'ullandi. Xo'jayinlari Volga bo'yi savdogarlari Sirotkin va Lapshin bo'lgan "Xiva" jamiyati ularning eng yirigi edi. "Xiva" jamiyati Orol dengizida 5 ta o'zi yurar kema, 5 ta yelkanli va 4 ta yog'och barjalarga ega bo'ldi. Uning floti Amudaryoda 3 ta paroxod, 1 ta o'zi yurar va 4 ta boshqariladigan barjani tashkil qildi⁵³.

Amudaryo flotiliyasining 1907-yili mavsumdagi faoliyati yuk tashish bo'yicha quyidagicha bo'ldi: Transport kontoralari tomonidan Xiva xonligi va Amudaryo bo'limidan Chorjo'yga mahalliy qayiqlarda 691233 pud yuk, tuyalarda 79.120 pud yuk jo'natildi. Jo'natilgan yukning asosiy qismi paxta, beda tuxumi, teri, gazlama, qorako'l terisi va jun mahsulotlari edi⁵⁴. 1905-1908-yillar holatiga ko'ra Amudaryo flotiliyasida yiliga o'rtacha 77 ta reys amalga oshirilgan bo'lsa, ularda 17 ming yo'lovchi va 530 ming pud yuk tashildi.

1907-yilgi navigatsiya davrida Amudaryo flotiliyasi kemalari bilan 850 ming pud, jumladan, 250 ming pud mazut, 138 ming pud davlat yuklari va 462 ming pud xususiy tijorat yuklari tashildi. 2,5 mln pud atrofidagi yuklar mahalliy qayiqlar va tuyalar yordamida tashildi. Bundan kelib chiqadiki, Amudaryo flotiliyasi kemalari tomonidan tashilgan xususiy tijorat yuklari Amudaryoning umumiy yuk aylanmasining 15 % ini tashkil qiladi⁵⁵.

Amudaryo rus flotiliyasining tashkil etilishi Xorazm vohasiga temir yo'lgacha yo'l ochdi va shu tariqa uni Markaziy Rossiya bilan bog'ladi. Amudaryo bo'limi shaharlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri yo'llar ishga tushirilib, ulardan eng yaxshilaridan biri Petro-Aleksandrovskiy va Chimboy o'rtasidagi o'ris yo'l (rus yo'li) deb ataladigan yo'l edi. Suv yo'llari shakllanishi jarayonida 1877-yildan 1882-yilgacha muhandis Valuev Amudaryoni kuzatish va qirg'oq eroziyasiga qarshi choralar ko'rish bilan shug'ullangan. Amudaryo suv yo'li 3 qismga bo'lindi, birinchisi yuqori oqim Fayzobod qal'adan Patta-Hisor (Termiz)gacha 100 ming pud yuk aylanmasiga ega, ikkinchi qism o'rta oqim Patta Hisordan Chorjo'ygacha 1.200.000 pud yuk aylanmasiga ega va uchinchi quyi oqim Chorjo'ydan Amudaryo bo'limigacha 2 mln yuk aylanmasiga ega 1907-yil navigatsiya davrida tashilgan yukning umumiy hajmi 3.300.000 pud bo'lgan bo'lsa, shundan 850.000 pud yuk Amudaryo flotiliyasi kemalarida qolgan 2.500.000 pud yuk xususiy qayiqlarda va tuyalarda tashildi⁵⁶.

Orol dengizi va Amudaryo suv yo'lida Amudaryo flotiliyasi va "Xiva" aksiyadorlik jamiyatining flotiliyasi yuk tashidi. Bundan tashqari Aralskda xususiy kemasozlik korxonasi, "Xiva" aksiyadorlik jamiyati paydo bo'lib, uning maqsadi Chorjo'y, Xiva xonligi va Aralsk oralig'ida aloqani ta'minlash bo'ldi. Bu jamiyat

⁵² Россия. Полное географическое описание. XIX том. Туркестанский край. Составил В.И.Масальский. -СПб. 1913. 571-б

⁵³ Хоразм тарихи. – Урганч, 1997. 49-б.

⁵⁴ ЎМА, И-1089- фонд, 1- рўйхат, 54- иш, 45- варақ.

⁵⁵ Михайлов А. Каючный промысел на Амударье//Туркестанские ведомости. 1888. 220-сон. 76-б.

⁵⁶ Турсунов С., Қобилов Э. Сурхондарё тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 214.

Aralsk stantsiyasi bilan Mo'ynoq orasida aloqani ta'minladi. "Bunda 25-30 ming pud yuk ko'tarish quvvatiga ega yog'och dengiz barjalari, "Ministr Raxlov" paroxodi va "Xiva xoni" kemasi, yuk ko'tarish quvvati 45-50 ming pudlik yuk teploxodidan foydalanildi. Ikki kemada ham passajirlar uchun uncha ulkan bo'lmagan hujralar bo'ldi"⁵⁷. Petro-Aleksandrovskdan Chorjo'ygacha va Chorjo'ydan Termizgacha Amudaryo flotiliyasining paraxodi va Xiva jamiyatining 3 paraxodi: "General Samsonov" (Yangi Urganch va Chorjo'y oralig'ida) "Xivinets" va "Buxarets" (Yangi Urganch va To'qmoq Ota oroli oralig'ida) muntazam reyslarni amalga oshirdi⁵⁸.

Xorazm oazisi temir yo'l bilan Amudaryoning o'rta oqimidan Chorjo'ygacha va quyi oqimi bo'ylab va Orol dengizidan Aralskgacha suv yo'lida aloqada bo'ldi. Oazisning asosiy markazidan temir yo'lgacha birinchi yo'nalish bo'yicha 500 km, ikkinchisi bo'yicha 750 km gacha masofani tashkil qildi⁵⁹.

Amudaryo bo'limida ichki suv yo'llarini Amudaryo va boshqa yo'llar tashkil qilgan. Bunda kemalar, qayiqlar va mayda sudnalar suzib yurdi. Ular shamol bo'lmagan paytida saldochilari tomonidan harakatga keltirildi. Amudaryo va uning tarmoqlari bo'ylab paraxodlar suzib yurdi. Yuklarni tashish uchun xalq rus kemalaridan foydalandi.

1914-yili Xorazm oazisining suv transporti barcha yuklarning 58% tashidi, masalan paxtaning 55% qayiqlarda va faqat 3% paraxodlarda tashildi⁶⁰.

Amudaryoning daryo flotiliyasining birinchi jahon urushining avvalgi ishi haqida quyidagi ma'lumotlar guvohlik beradi. "1909-yili 535 ming pud yuk va 20 ming passajirlar, 1911-yili 573 ming pud va 22 ming passajirlar tashildi"⁶¹.

Orol dengizi va Amudaryoda yuk tashish bilan harbiy flotiliyadan tashqari shaxsiy kemalarning egalari ham shug'ullandi. Xo'jayinlari Volgabo'yi savdogarlari Sirotkin va Lapshin bo'lgan "Xiva" jamiyati Orol dengizida 5 ta o'zi yurar kema, 5 ta yelkanli va 4 ta yog'ochli barjalarga ega bo'ldi. Uning floti Amudaryoda 3 ta paraxod, 1 ta o'ziyurar va 4 ta boshqariladigan barjani tashkil qiladi⁶².

Birinchi jahon urushi paytida Amudaryo harbiy flotiliyasi sezilarli darajada talofatga uchradi. Flotiliyaning aksariyat qismi ta'mirlash ishlarini talab qilardi.

1918-yilning iyulida Kaspiyorti frontining harbiy-siyosiy shtabi harbiy harakatlarga, jumladan, Amudaryo flotiliyasiga bevosita rahbarlik qilishni o'z qo'llariga oldi⁶³.

Qoraqalpog'istondagi fuqarolar urushi frontlarida Amudaryo flotiliyasi paraxodlari va barjalari: "Shumilov", "Moskva", "Toshkent", "Niva", "Xivinets",

⁵⁷ Шалекенов У.Х. Казахи низовьев Амударьи. К истории взаимоотношений народов Каракалпакии в XVIII-XX вв. – Ташкент: Фан, 1966. 124-б.

⁵⁸ Михайлов А. Каючный промысел на Амударье ... 22-б.

⁵⁹ Садыков А.С. Россия и Хива в конце XIX-начале XX века.- Ташкент: Фан, 1972. 59-б.

⁶⁰ Досумов Я.М. Очерки истории Каракалпакской АССР...33-б.

⁶¹ Абрамцев А.Т. Магистраль дружбы (Из истории Среднеазиатского пароходства).- Ашхабад: Ёлым, 1983. 26-27-б.

⁶² Сулаймонов С.А. Амударё флотилиясининг ташкил топиши ва фаолияти // "Ўзбекистонда ижтимоий-иктисодий ва этномаданий ҳаёт: тарих ва таҳлил" респ. илм. анж. мат.- Термиз, 2014 - Б.350.

⁶³ Каракалпакстанның жаңа тарийхы. XIX әсирдин екинши ярымынан XXI әсирге шекем.-Нөкис: Каракалпакстан, 2003.-87-б.

"Verniy", "Odessa" va boshqalarning 300 ga yaqin dengizchilari, komandirlar va siyosiy xodimlari fidokorona jang qildilar⁶⁴.

1919-yil 11-noyabrda Shaydakov otryadiga To'rtko'ldan Ural oq kazaklari va Junayidxon to'dalariga qarshi yana yo'lga chiqish buyuriladi. Otryad 360 nafar Qizil Armiya askarlari, otiqlar eskadronining 150 nafar jangchisi va «Xivinets» paroxodining 40 nafar dengizchilaridan iborat uchta uzun barkas va «Verniy» teploxodida Amudaryoning quyi oqimiga qarab harakat qildi. 1919-yil 27-noyabrda N.A.Shaydakov otryadi Amudaryo flotiliyasi dengizchilarining yordamida Nukus shahrini aksilinqilobchi kuchlardan ozod etdi⁶⁵.

Amudaryo harbiy flotiliyasi 1920-yil fevralda G.G.Pinskiy qo'mondonligi, S.Kramm komissarligi (fevral - aprel 1920-yil) ostida qayta tuzildi va Turkiston frontiga bo'ysundi. Uning bosh bazasi Chorjo'y shahrida joylashdi.

Turkiston yo'l aloqalari harbiy komissarining 1920-yil 4-martdagi front qo'shiniga chiqargan 94-sonli buyrug'i asosida Amudaryo harbiy flotiliyasi o'z tasarrufidagi Amudaryo daryo flotiliyasi bilan ajralib chiqdi, unga front flotiliyasining rahbari rais etib tayinlandi. 1920-yil 8-yanvardagi 1-armiya qo'shinlariga chiqarilgan 0120-sonli buyruq asosida Amudaryo flotiliyasi armiya tasarrufiga o'tdi.

“1924-1945-yillarda Orol va Amudaryo suv yo'lining mintaqa halqlari hayotida tutgan o'rni” deb nomlangan uchinchi bobda Orol dengizi va Amudaryo suv yo'lining asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Amudaryo harbiy flotiliyasi va aksionerlik jamiyatlari floti negizida 1923-yili yo'l aloqalari xalq komissari F.Dzerjinskiy buyrug'i bilan O'rta Osiyo davlat kemachiligi (SredAzparaxodstva) tashkil topdi. O'rta Osiyo kemachiligi tashkil topgan vaqtda mazkur muassasa O'rta Osiyo daryo transporti boshqarmasi deb nomlanib, uning birinchi raisi A.N.Nikolaev bo'ldi. Boshqarma tarkibiga mintaqaning asosiy suv havzalari Amudaryo va Orol dengizi kirdi. O'rta Osiyo kemachiligi tarkibi Amudaryo flotiliyasining floti va davlat tasarrufiga o'tgan xususiy kemalar bilan tashkil topdi. Unga Amudaryo va Orol dengizida suv transportini rivojlantirish vazifasi yuklandi⁶⁶. Dastlabki yillari yuklarning asosiy qismi qayiqlarda tashildi. O'rta Osiyo paraxodchiligi 600 ta yog'och qayiqqlarni qurib suvga tushirdi⁶⁷.

O'zbekistonning Xorazm viloyati va qo'shni Turkmanistonning Tashovuz viloyati bilan aloqa suv va havo orqali amalga oshirildi. Amudaryo bo'ylab yo'lovchi va yuk kemalari tinimsiz harakatlanardi. O'sha paytda Orol dengizida o'nlab zamonaviy dengiz kemalari suzib yurardi⁶⁸. O'rta Osiyo kemachiligining Amudaryo flotiliyasi tarkibida o'sha vaqtda 9 ta teploxod, 15 ta barja va 4 ta yordamchi kemalar mavjud edi. O'rta Osiyo kemachiligi flotini tiklash uchun 1928 yili Volga daryosidan 17 ta o'zi yuradigan paraxodlar keltirildi. 22 ta barja yuk tashish faoliyatini boshladi. Qisqa vaqt ichida Aralskda kema ta'mirlash zavodi, Xo'jayli va Termizda kema ta'mirlash ustaxonalari qurildi. Chorjo'ydagi kema

⁶⁴ ҚРМДА, Р-12- фонд, 1-рўйхат, 9-иш, 73-варақ.

⁶⁵ ЎМА, Р-25 фонд, 1-рўйхат, 198-иш, 6-8 варақ.

⁶⁶ ХХМДА, 1884-фонд, 4 рўйхат, 11 иш, 137 варақ.

⁶⁷ Абрамцев А.Т., Грачев А.А., Морозов Н.Г., Суворов Б.П. Магистраль дружбы... 51-б.

⁶⁸ Шалекенов У.Х. Казахи низовьев Амударьи. К истории взаимоотношений народов Каракалпакии...171-б.

ta'mirlash ustaxonasi kengaytirilib zavodga aylantirildi. Amudaryoda yo'lovchilarni tashish maqsadida 30-100 o'rinli passajir teploxodlarni qurishga ham e'tibor qaratildi. "Lastochka" paroxodi Amudaryoda passajir tashish ishlarida faol bo'ldi⁶⁹.

1923-yilda Xorazm xalq respublikasi ixtiyorida 270 ta arava, Amudaryo va Orol flotiliyasiga qarashli 45 ta katta va kichik hajmdagi kemalar, 7 dona paraxod, 2 ta teploxod, 1 dona kater, 8 ta barja, 7 ta neft tashuvchi kema va barkaslar bo'lgan⁷⁰. Katta yuklarni tashiydigan temir yo'l ham bo'lmagan.

1924-1925-yil mavsumida O'rta Osiyo davlat kemachiligi Orol agentligi tarkibidagi "Kommuna", "Svoboda", "Kirgiz", "Leytenant Shmidt" va "Lenin" paraxodlarida ta'mirlash ishlari olib borildi. Amudaryo agentligi tomonidan "Toshkent", "Trotskiy", "Dvina" va "Chorjo'y" kemalari ta'mirlandi⁷¹.

Amudaryoning o'rta qismida "Dzerjinskiy" paraxodi yuklarni tashish ishlariga jalb etilgan. Paraxod 1912-yili ishlab chiqilgan, 1934-1935-yilgi ta'mirlash rejasiga kiritilgan.

1925-yili 1-martda O'rta Osiyo davlat kemachiligi 78-sonli buyrug'i bilan qisqa muddatda Amudaryo flotiliyasi kemalari ta'mirlash ishlarini yakunlash vazifasi qo'yildi. O'rta Osiyo respublikalari xalq xo'jaligi uchun zarur tovarlarni o'z manziliga yetkazishda kemalarning o'z vaqtida suzilishini ta'minlash asosiy masala bo'ldi. Kema tarkibi orasida mehnat intizomiga qat'iy amal qilish vazifasi yuklatildi⁷².

1925-yil davomida yuk tashish hajmi O'rta Osiyo kemachiligi tomonidan 10453 tonna, qayiqlarda 31474 tonna ya'ni 75% yuk qayiq transportiga, 1926-yilning yanvar-may oylarida O'rta Osiyo davlat kemachiligi tomonidan 2409 tonna, qayiqlarda 13959 tonna ya'ni 85% yuk to'g'ri keldi⁷³.

O'rta Osiyo kemachiligi tomonidan yuk tashish dinamikasining o'sishi 1923-1924-yillarda 66000 yuk tashilgan bo'lsa, 1926-1927-yili bu ko'rsatkich 1724000 pudga yetdi. Ayniqsa, Orol dengizi va Amudaryo basseynida yuk tashish hajmi ortdi. Lekin bunda xususiy qayiqlarning ulushi katta bo'ldi. O'rta Osiyo kemachiligi Amudaryoda tashiladigan yukning 35-40% iga tashishga muvaffaq bo'ldi⁷⁴. Qayiq transporti Amudaryodagi dastlabki transport hisoblanib, XX asrning 20-yillaridan boshlab u asosiy transportlardan biriga aylandi. "1926-yilgi mavsumda Amudaryoda 450 ta qayiq suzgan bo'lsa, shundan 106 ta buydar qayiq umumiy yuk tashish hajmi 12.500 tonna ya'ni Amudaryoda tashiladigan yukning 93% qayiqlarda tashildi. Qolgan 7% yuk O'rta Osiyo kemachiligi paraxodlariga to'g'ri keldi"⁷⁵. Amudaryo suv yo'lida 1927-yil holatiga 7000 nafar mahalliy ishchilar ishlagan. Ularning asosiy tirikchiligi qayiqlar bilan bog'liq edi⁷⁶. O'rta Osiyo kemachiligi floti o'sib bordi va kadrlarni tayyorlash masalasi ham kun

⁶⁹ Абрамцев А.Т., Грачев А.А., Морозов Н.Г., Суворов Б.П. Магистраль дружбы...51-б.

⁷⁰ Хоразм тарихи – Урганч: Хоразм, 1997. II жилд. 88-б.

⁷¹ ЎМА, Р. 9 фонд, 1 рўйхат, 2905 иш, 316 варақ.

⁷² ЎМА, Р.244- фонд, 9-рўйхат, 1-иш, 113-варақ.

⁷³ ЎМА, Р. 9-фонд, 1-рўйхат, 2905-иш, 506-варақ

⁷⁴ ЎМА. Р. 9-фонд, 1-рўйхат, 2905-иш, 331-варақ.

⁷⁵ Шалекенов У.Х. Казахи низовьев Амударьи...171-б.

⁷⁶ ЎМА, Р. 9-фонд, 1-рўйхат, 2905-иш, 508-варақ.

tartibida turdi. Bunda mahalliy kadrlarni tayyorlashga e'tibor qaratildi. "1927-yili Chorjo'yda maktab ochilib flot uchun ishchilarni tayyorlash boshlandi. So'ng bu maktab kasbiy bilim yurtiga aylantirilib, qariyb 4000 nafar mutaxassislar bitirib chiqdi"⁷⁷. 1930-yili Toshkentda dengizchilarni tayyorlovchi daryo texnikumi ochildi. So'ngra bu texnikum Chorjo'y shahriga ko'chirildi.

O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi Prezidiumining 1927-yil 4-oktyabrdagi yig'ilishi qarori bilan harakatdagi artellarni Amudaryo havzasi qayiq va kema egalari (kayuchnik) kooperativ arteli qilib qayta tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Amudaryo Chorjo'ydan yuqori oqim bo'ylab yil davomida muzlamagan, Chorjo'ydan pastga qarab dekabr oyidan boshlab muz bilan qoplangan. Orol dengizida kemalarning harakatlanishi 7 oy davom etardi. 1927-yil 1-avgust holatiga ko'ra flotning holati quyidagicha bo'lgan: bug'li flot 16 ta kemadan iborat yuk tashish hajmi 1004 tonna, zaxirada 8 ta kema, yaroqsiz 5 ta kema, bug'siz flot 19 ta kemadan iborat yuk tashish quvvati 2338 tonna, zaxirada 7 ta kema va yaroqsiz 8 dona kema mavjud⁷⁸.

O'rta Osiyo iqtisodiy Kengashining 1927-yil 4-apreldagi 28-sonli qaroriga muvofiq qayiqchilar transport byurosi tashkil etildi. "Byuroning asosiy vazifasi qayiqlar faoliyatini barqaror amalga oshirish, tariflarni, yuklarni tashishni yo'lga qo'yish, transport jamiyatlari bilan birga ishlarni olib borishdan iborat bo'ldi. Byuro o'z ishini boshlagan ilk kunlaridanoq ma'lum qiyinchiliklarga uchradi"⁷⁹.

1926-yilgi mavsumda Amudaryoda 450 ta qayiq suzgan bo'lsa, shundan 106 ta buydar qayiq umumiy yuk tashish hajmi 12.500 tonna ya'ni Amudaryoda tashiladigan yukning 93% qayiqlarda tashildi. Qolgan 7% yuk O'rta Osiyo kemachiligi paroxodlariga to'g'ri keldi⁸⁰.

Amudaryoda faoliyat olib boruvchi qayiqchilar tashkilotlari quyidagicha bo'lgan:

Xorazm-Yangi Urganch qayiqchilar ittifoqi 8000 nafar a'zosi bo'lib asosan o'zbeklardan iborat bo'lgan. Tashkil topgan vaqtda "Xorazm viloyati qayiqchilar Ittifoqi" deb nomlangan o'z muhriga ega va bugungi kungacha shu nom bilan faoliyat yuritmoqda.

Qoraqalpoq – To'rtko'l qayiqchilar ittifoqi 650 nafar a'zodan iborat bo'lib, asosan qoraqalpoqlar tashkil qiladi⁸¹.

O'rta Osiyo davlat kemachiligi kemalari asosan Amudaryo suv yo'li orqali Xorazm vohasi va Qoraqalpog'iston hududining asosiy transport arteriyasi bo'ldi. Orol dengizi kemalar suzishi uchun qulay bo'lib asosiy tranzit yo'li edi. Shuningdek, Orol dengizi asosiy baliq sanoati rivojlanayotgan punkt ham hisoblangan. 1929-yilgi mavsumda Amudaryoda 3595 tonna yuk O'rta Osiyo kemachiligi paroxodlarida, 10.000 tonna yuk qayiq transportlarida tashildi⁸².

⁷⁷ Абрамцев А.Т., Грачев А.А., Морозов Н.Г., Суворов Б.П. Магистраль дружбы...51-б.

⁷⁸ ЎМА, Р. 9-фонд, 1-руйхат, 2905-иш, 497-варақ.

⁷⁹ ЎМА, Р. 9-фонд, 1-руйхат, 2905-иш, 65-варақ.

⁸⁰ Шалекенов У.Х. Казахи низовьев Амударьи...171-б.

⁸¹ ЎМА, Р. 9-фонд, 1-руйхат, 2905-иш, 506-варақ.

⁸² ЎМА, Р.244-фонд, 9-руйхат, 5-иш, 5-варақ.

1929-yilgi mavsumdan boshlab Amudaryo suv yo'li uch qismga: Afg'oniston va Tojikiston bilan chegaradosh yuqori qism, Xorazm, Qoraqalpoq va Turkmanistonga xizmat ko'rsatadigan o'rta qism va Orol dengizi quyi qismga ajratildi. Orol dengizida O'rta Osiyo kemachiligi o'z flotiga ega bo'lib, dengizda suzuvchi kemalar yuk tashish hajmini 30% ga oshirdi. Amudaryo suv yo'lida harakatlanuvchi kemalar 34% ko'p yuk tashishga erishdi⁸³. 1930-yili Toshkentda dengizchilarni tayyorlovchi daryo texnikumi ochildi. So'ngra bu texnikum Chorjo'y shahriga ko'chirildi.

Amudaryoning yuqori qismida 1930-yili ishlangan "Tadjik" paraxodi, 1931-yili ishlab chiqilgan "Karakalpak" paraxodi, 1932-yili ishlangan "Pamyat Ilicha" paraxodi va 1932-yili qurilgan "Fomin" teploxodi faoliyat olib borib, barcha paraxodlar Sormovsk zavodida yig'ilganligini ta'kidlash lozim⁸⁴.

O'rta Osiyo iqtisodiy Kengashi Prezidiumining 1931-yil 14-maydagi yig'ilish qaroriga muvofiq daryo transportini to'liq mexanizatsiyalashtirish, ish masalalari ko'tarildi⁸⁵. Shuningdek, Chorjo'y va Aralsk kema ta'mirlash ustaxonalarini yangi uskunalar bilan ta'minlashga ham e'tibor qaratildi.

O'rta Osiyo davlat kemachiligi suv yo'llari asosan 4 ta havzada amalga oshirilib bular Amudaryo 1495 km, Orol suv yo'li – 468 km, Issiqko'l suv yo'li – 200 km, Ili suv yo'li – 500 km, Balxash suv yo'li – 400 kmni tashkil qilgan. Kemalarning suzishini uzluksiz ta'minlash maqsadida O'rta Osiyo ichki yo'llar boshqarmasi tomonidan shtat birliklari ko'paytirildi. Orol dengizida Orol va Mo'ynoq uchastkalarida 7 ta mayak o'rnatildi. Amudaryo suv yo'lida rejalarini o'z vaqtida bajarayotgan kema kapitanlari "Smidovich" kemasi (kapitan Ibragim Nurmetov), "Voroshilov" kemasi (kapitan Chari Geldiev), "Lomonosov" kemasi (kapitan Madraim Izbastiev), "Mikoyan" kemasi (kapitan Kara Xatamov), № 49 motorli teplaxod (kapitan Qurbonbay Qulmetov) ekipajlari Amudaryodagi ushbu harakatning faollari edi⁸⁶.

Mexaniklashtirilgan suv transportini qurish va qayiqlarni qisman mexanizatsiyalash uchun Qoraqalpog'iston ASSR hukumati SSSR Xalq Komissarlari Soveti oldida 1935-yilda 80 ta KTZ motorini ajratish to'g'risida talabnoma kiritdi⁸⁷. SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1936-yil 2-avgustdagi qaroriga muvofiq 1937-yilda Qoraqalpog'iston ASSR yuklarini Amudaryo havzasining suv transportida tashishni ta'minlash maqsadida "Amudaryo havzasida flot ishini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 1392 sonli O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti Qarori qabul qilindi.

Urushning boshlanishi bilan butun Orol suv yo'li faoliyati harbiylashtirildi. Frontga ketgan dengizchilar va kema jamoasi o'rnini ayollar va yosh bolalar egalladi. Orol porti ishchilari o'zlariga yuklatilgan ishlarni a'lo darajada bajardi⁸⁸. Urush yillarida respublika transporti va aloqasi rivojlandi. Qo'shinlar va yuklar daryo va dengiz transportida Amudaryo va Orol dengizi orqali tashilgan.

⁸³ ЎМА, Р.9-фонд, 1-рўйхат, 2910-иш, 138-варақ.

⁸⁴ ЎМА, Р.9-фонд, 1-рўйхат, 2907-иш, 303-варақ.

⁸⁵ ЎМА, Р.244-фонд, 9-рўйхат, 5-иш, 305- варақ.

⁸⁶ ҚР МДА,50- фонд, 1- рўйхат, 108- иш, 189- варақ.

⁸⁷ ЎМА, Р-837 фонд, 32 рўйхат, 103-иш, 59 варақ.

⁸⁸ Қарақалпақстанның жаңа тарийхы... 266-б.

Respublika daryo floti umumiy yuk ko'tarish quvvati 20,7 ming tonna bo'lgan 79 ta mexanizatsiyalashgan va 228 ta mexanizatsiyalashgan bo'lmagan kemalardan iborat edi. Urush boshida Amudaryo kemachilik korxonasi dengizchilar oilalaridan kadrlar tayyorlashni tashkil qildi. 1941-yil iyulidan 1944-yil 1-yanvarigacha 438 kishi dengiz flotiga ishga qabul qilindi. Urush sharoitida shu vaqt ichida suv transportining motorli floti 2 hissaga qisqarib, ularning o'rnini qayiqlar egalladi. Ushbu qiyinchiliklarga qaramasdan qoraqalpoq suv transporti ishchilari harbiylarni frontga yetkazishda katta xizmat ko'rsatdi. 1941-1944-yillari 430,1 ming tonna yuk tashilib, 2461 ming yo'lovchiga xizmat ko'rsatildi⁸⁹. Qoraqalpog'istonlik jangchilar front maydonlarida ham jasorat ko'rsatdi ular orasida Amudaryo kemachiligi ishchilari ham bor edi. Xo'jaylilik katta leytenant M.Mahmudov Amudaryo kemachiligiga qarashli Xo'jayli pristani ishchi siyosiy xodimi edi. Amudaryo suv yo'lida suzgan kemalar o'rtasida 1944-yil aprel oyida o'tkazilgan musobaqalarda "Komsomol" kemasi g'alaba qozonib, jamoaga ko'chma bayroq topshirildi. Kema a'zolari O'rta Osiyo kemachiligi ma'muriyati tomonidan sovg'alar bilan taqdirlandi⁹⁰. Daryo transporti ikkinchi jahon urushi yillarida respublika mehnatkashlari oldida turgan eng muhim xalq xo'jaligi vazifalarini hal etishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kemalarni ta'mirlash zavodlarida ham ishlar harbiychasiga tashkil etilgan. Stanoklar va dastgohlar kunu tun ishlab flotning buyurtmalarini o'z vaqtida bajargan. Jumladan, "Xo'jayli kema sozlash zavodi iyul' oyida rejasini 103 % ga bajardi. O'rta Osiyo havzasi ayollari Vatan himoyasi yo'lidagi fidokorona mehnatlari yilnomasiga yorqin sahifa yozdilar. Amudaryo kemachilik kompaniyasining kema, zavod, port va boshqa korxonalarida allaqachon 836 nafar, 1944 yil boshida esa 866 nafar ayol ishlagan. Urush yillarida Amudaryo kemachilik korxonasi dengizchilar oilalaridan kadrlar tayyorlashni tashkil qildi. 1941-yil iyulidan 1944-yil 1-yanvarigacha 438 kishi dengiz flotiga ishga qabul qilindi. Ikkinchi jahon urushi yillarida daryo transporti xalq xo'jaligining zarur yuklarini yetkazishda Qoraqalpoqsuvtrans ishchilari harbiy vaqt davrida hukumat topshiriqlarini to'liq bajarib keldi. Respublikaga kelayotgan yuklarni o'z vaqtida manzillariga yetkazish bo'yicha ishlarni amalga oshirdi. Ichki kemalardan ham imkon boricha foydalanildi.

"1946-1983-yillarda Orol va Amudaryo suv yo'li inqirozi" deb nomlangan 4 bobda suv yo'llarining urushdan keyingi holati va xalq xo'jaligini qayta tiklashda suv yo'llarining ahamiyati tahlil etilgan. Urushdan keyingi yillarda Amudaryo kemachiligida xizmat ko'rsatadigan yo'llarning uzunligi 1000 km dan oshdi. Mo'ynoq va Orol oralig'ida qatnovchi paraxodlar tezligi oshirildi. Chorjo'ydan Orol portigacha muntazam kema qatnovi tiklandi.

1946-yil 22-dekabrden 25-dekabrigacha Xo'jayli pristanida Markaziy Osiyo havzasi Daryo floti ishchilarining Xo'jayli suv yo'li 4-uchastkasi ishlab chiqarish va xo'jalik aktivlari yig'ilishi bo'lib, uning ishida 200 nafar delegat qatnashdi. Xo'jayli pristani rahbariyati va O'rta Osiyo kemachiligi korxonasi ishidagi kamchiliklar haqida so'z ketib, jami 39 kishi ro'yxatdan o'tib, 27 kishi so'zga

⁸⁹ Карақалпақстанның жаңа тарийхы... 268-б.

⁹⁰ Советская Каракалпакия, 1944, 6 август

chiqdi⁹¹. 1946-1950-yillarda Amudaryo kemachiligi tarkibidagi butun o'ziyurar va o'ziyurar bo'lmagan flot kapital ta'mirlandi. Kemalar va korpusini ta'mirlash, korpusni o'zgartirish bo'yicha katta ishlar birga olib borildi. Yuk tashish korxonasi kema ta'mirchilari bu vazifani sharaf bilan bajardilar. 1947-yilda o'rtacha 49 ta kema kapital ta'mirdan, 111 ta kema joriy ta'mirdan chiqdi. Bundan tashqari, zavod flotning joriy va mavsumiy ta'mirlash ishlarini tez va sifatli amalga oshirdi⁹². 1948-yil uchun O'rta Osiyo kemachiligi bo'yicha yillik reja 567,9 tonna yuk, 2567 ml. tonna kilometr etib belgilanib, shu yilning 1-dekabr holatiga 579 ming tonna yuk, tashilib reja 102% ga va 266,2 ml tonna-kilometr yo'l bosib o'tilib reja 103,8% ga bajarildi. SSSR Ministrlar Sovetining 1948-yil 10-fevraldagi №1394 sonli topshirig'iga binoan 1-fevraldan 15-aprel oralig'ida Xorazm, Toshavuz viloyatlari va Qoraqalpog'iston ASSR iga ekish mavsumi uchun 13 ming tonna neft mahsulotlarini yetkazish belgilandi. Topshiriq 15-aprel holatiga 13126 tonna yuk manzilga yetkazilib, ortig'i bilan bajarildi⁹³.

O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashi va O'zbekiston KP(b) 1948-yil 17-sentyabrdagi №1376-sonli "Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston ASSRga don va sanoat mollarini muddatidan oldin yetkazib berishdagi qoniqarsiz holat to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra Qoraqalpog'iston obkompartiya viloyat qo'mitasi va QQASSR Vazirlar Kengashi Uchsoy pristaniga qo'shimcha 100 ta yuk tashuvchilar bilan ta'minlashi va QQASSR respublika tashkilotlariga don va paxta yuklarini ortish ustidan nazoratni ta'minlash hamda Davlat kemachiligiga ishchi kuchi bilan samarali yordam berish topshirildi⁹⁴. 1948-yilning 20-noyabrigacha ya'ni navigatsiya davri yakunigacha Orol dengizi portidagi stantsiyada yuk tashish hajmini 44,1 ming tonna yetkazish jumladan: suv yo'llari orqali 19000 t., quruklikdagi yo'llar orqali 25100 tonna xalq xo'jaligi uchun zarur yuklar jo'natildi⁹⁵.

1950-yildan boshlab qayiq floti butunlay o'z faoliyatini to'xtatdi. O'rta Osiyo kemachiligida tashiladigan yukning asosiy qismi Qoraqalpog'iston va Xorazm vohasiga to'g'ri keldi. Orol dengizi va Amudaryo suv yo'lida asosan xalq xo'jaligiga zarur bo'lgan yuklarning 90% tashildi. To'rtko'l, Beruniy, Qipchoq, Qaratav, Taxiatah, Qizketken, Nukus, Xo'jayli, Po'rlitog', Qo'ng'iroq va Toldiq bandargohlari Qoraqalpog'istonga olib kelinadigan yuklarni qabul qilib o'z manzillariga yetkazishda asosiy o'rinni egalladi. Kema kapitanlaridan Madraim Izbastiev, Allambergen Mamutov, Ashir Yoqubov Xalila Xudoybergenvlarning nomlari sobiq Ittifoqda mashhur bo'lgan.

QQASSRda 1954-yil uchun sanoat korxonalari tomonidan yalpi mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi daryo transporti ministrligi tomonidan 5649 tonna yuk tashilib, reja 123,4% bajarilgan⁹⁶. Xo'jayli kema ta'mirlash korxonasi yillik rejani 130,1% ga bajardi.

⁹¹ КРМДА, Р-551 фонд, 1-рўйхат, 6270-иш, 1-варак.

⁹² КРМДА, Р-155 фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 5-варак.

⁹³ КРМДА, Р-551 фонд, 1-рўйхат, 6270-иш, 2-варак.

⁹⁴ КРМДА, Р-551 фонд, 1-рўйхат, 6140-иш, 11-варак.

⁹⁵ КРМДА, Р-551 фонд, 1-рўйхат, 6140-иш, 25-варак.

⁹⁶ КРМДА, Р-551 фонд, 1-рўйхат, 7767-иш, 18-варак.

QQASSR Vazirlar Kengashi huzuridagi Daryo transporti (Rechtrans) boshqarmasining 1957-yildagi ishi to'g'risida №1003 sonli hisobotida QQASSR Vazirlar Kengashi huzuridagi Daryo transporti boshqarmasi tashkil etilgan "O'zrechtrans"ning sobiq Nukus ekspluatatsion uchastkasining avtoparki respublikaning yuk tashish, yuklarning xavfsizligini ta'minlash va yuklarni yetkazib berish muddatini qisqartirish, yuk tashish hajmini amalga oshirish bo'yicha ortib borayotgan talablariga javob berishi alohida ta'kidlangan⁹⁷.

1955-1956-yillarda "O'zrechtrans"ning Nukus ekspluatatsion uchastkasi floti tarkibi tubdan o'zgartirildi⁹⁸. Yog'och qayiq va taxtalar o'rniga yuk ko'tarish quvvati 50 dan 180 tonnagacha bo'lgan yangi metall barjalar ishga tushirildi. O'ziyurar flot tarkibida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Kam quvvatli, nomukammal dizayndagi yog'och qayiq har birining quvvati 108 ot kuchiga ega yangi metall motorli kemalar bilan almashtirildi. Bundan tashqari, har biri 150 ot kuchiga ega to'rtta metall vintli motorli kema qo'shimcha ravishda ishga tushirildi⁹⁹.

Boshqarma tomonidan umumiy hisobda 88,0 ming tonna yuk tashilgan va 8684,0 ming tonna-kilometr yo'l bosilgan, ya'ni yuk tashish rejasi tonna bo'yicha 110 foizga, tonna-kilometr bo'yicha 105,7 foizga bajarildi. 1956-yilda yuk tashish rejasi 100,6% tonnada, tonna-kilometrda 100 foizga bajarildi. "Qoraqalpaqrechtrans" korxonasi faoliyatida ham Amudaryoda, ham kanallarda ishlaydigan parom-qayiq o'tish joylari ham birdek muhim o'rin tutadi. Parom floti nafaqat yo'lovchilar va yuklarni, balki transport vositalarining ham Amudaryodan kesib o'tishini amalga oshiradi¹⁰⁰.

Daryo transportida yuk aylanmasi yildan-yilga ortib bordi. Agar 1936-yilda respublika bo'yicha Amudaryo bo'ylab 180 ming tonna yuk qabul qilib, 150 ming tonna jo'natilgan bo'lsa, 1963-yilda xuddi shu yo'nalish bo'yicha Qoraqalpog'istonga 2 million tonnaga yaqin yuk yetib kelgan. 1,1 million tonna yuk eksport qilindi¹⁰¹.

Dengizda navigatsiya mavsumi 7 oy davom etgan. Aralsk va Mo'ynoq kabi yirik portlar faoliyat ko'rsatgan. 1959-1965-yillarda xavfsiz navigatsiya uchun kurash olib borildi. Bu davrda Amudaryoning chuqurlashtirish floti to'qqizta yangi yuqori samarali snaryadlar bilan to'ldirildi.

1968-yilning umumiy ishlab chiqarish davlat rejasi 25-dekabrga qadar bajarish va yil oxiriga qadar 3 ming so'm miqdorida ortiqcha mahsulot berishi va davlat besh yillik rejasini 1970-yil 7-noyabr'ga qadar barcha ko'rsatkichlar bo'yicha bajarish va yil oxiriga qadar rejadan tashqari 15 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha Xo'jayli kema ta'mirlash zavodi jamoasi sotsialistik majburiyatni oldi¹⁰².

⁹⁷ ҚРМДА, Р-551 фонд, 1-рўйхат, 1790-иш, 119-варақ.

⁹⁸ ҚРМДА, Р-551 фонд, 1-рўйхат, 8428 иш, 1-варақ.

⁹⁹ ҚРМДА, Р-551 фонд, 1-рўйхат, 8428 иш, 1-варақ.

¹⁰⁰ ҚРМДА, Р-551 фонд, 1-рўйхат, 8428 иш, 2-варақ.

¹⁰¹ Шалекенов У.Х. Казахи низовьев Амурдарьи...59-б.

¹⁰² ҚРМДА, Р-551 фонд, 2-рўйхат, 2284-иш. 21-варақ.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1972-yil 6-maydagi "Odessa va Leningrad dengiz portlari jamoalarining mehnat unumdorligini oshirish va qayta ishlashni jadallashtirish floti tashabbusi to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 1972-yilgi yubiley yili uchun qabul qilingan sotsialistik majburiyatlarni bajarib, "Xo'jayli" pristani va "Uchsoy" porti kollektivlari mehnatda yaxshi natijalarga erishdi."Uchsoy" porti o'tgan yili yuklarni qayta ishlash rejasini 112,8 foizga, mehnat unumdorligini 127 foizga bajarib, 1,9 ming so'm ortiqcha foyda olindi."Xo'jayli" pristani ham besh yillikning ikkinchi yili topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajarib, mahsulotlarni qayta ishlash bo'yicha 114,6 foizga, mehnat unumdorligi rejaga nisbatan 31 foizga oshib, 38,7 ming rubl miqdorida rejadan ortiq foyda olindi¹⁰³. SSSR Dengiz floti vazirligiga Qoraqalpog'iston partiya ko'mitasi tomonidan 1973-yil 13-martdagi PT-10-38 sonli xatida Xo'jayli kema ta'mirlash zavodining ishlab chiqarish faoliyatiga yordam ko'rsatish to'g'risida murojaatida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. O'rta Osiyo davlat kemazozlik korxonasi Xo'jayli kema ta'mirlash zavodida o'tgan sakkizinchi besh yillikda mahsulot ishlab chiqarish o'sish sur'atlari past (10 foiz) bo'lgan bo'lsa, joriy besh yillikning ikki yilida bu ko'rsatkich qariyb 7 foizni tashkil etdi. Joriy yilning yanvar va fevral oylari uchun zavod ishlab chiqarish rejasini atigi 27 foizga bajardi va avtonom respublikada qoloq korxonasi hisoblanadi¹⁰⁴.

O'zbekiston SSRi Boshneftta'minot korxonasi raxbari N.V.Vaxabov nomiga Qoraqalpog'iston obkom partiyasidan 4-avgust 1977-yil yozilgan PT-13-284 sonli xatida qo'yidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Keyingi yillarda muxtor respublikaning janubiy tumanlari, eng yirik To'rtko'l, Beruniy paxta tozalash va Beruniy neft zavodlari neft mahsulotlarining Amudaryo bo'ylab o'z vaqtida yetkazib berilmaganligi sababli, ayniqsa, suv yo'lida navigatsiyalar almashinuvi davrida katta qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Shu munosabat bilan ajratilgan mablag'ga muvofiq, navigatsiya mavsumi yopilguniga qadar janubiy neft bazalari uchun 62 ming tonnadan ortiq neft mahsulotlari, zavodlar texnologiyasi uchun 1800 tona mazut va 1000 ming tona kerosin tashish zarur. Buning uchun O'rta Osiyo Davlat kemachiligida zarur tonnaj bor¹⁰⁵.

O'zbekiston SSRi Ministrlar Sovetining baliq xo'jaligi bo'yicha davlat komiteti raxbari A.U.Maxmudovning Qoraqalpog'iston obkomi 1-sekretari Q.Kamalov nomiga 20-avgust 1977-yili yozilgan 02-271 sonli xatida KPSS MQ va O'zbekiston SSR Vazirlar Sovetining qarorlarini bajarish maqsadida SSSR Baliqchilik vazirligining "10-besh yillikda mamlakatning ichki suvlarida sanoat baliqchiligini rivojlantirish to'g'risida"gi buyrug'i qabul qilindi. O'zbekiston SSR Vazirlar Soveti Baliqchilik davlat qo'mitasi 1978-1980-yillarda respublikangizda baliq va baliq mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha ishlanmalarni amalga oshiradi.Ularni ko'rib chiqishingizni va ko'tarilgan masala yuzasidan o'z takliflaringizni berishingizni so'raymiz¹⁰⁶.

¹⁰³ КРМДА, Р-551 фонд, 2-руйхат, 2284-иш. 15-варақ.

¹⁰⁴ КРМДА, Р-551 фонд, 2-руйхат, 2284-иш. 8-9-варақ.

¹⁰⁵ КРМДА, Р-551 фонд, 2-руйхат, 3385-иш, 72-варақ.

¹⁰⁶ КРМДА, Р-551 фонд, 2-руйхат, 3412-иш, 9-варақ.

O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisi N.M.Xudoyberdiev nomiga Qoraqalpog'iston obkomi tomonidan 5-noyabr 1979-yili yozilgan PT-13-912 sonli xatida To'rtko'l-Dul-Dul avtomobil yo'lidan Tuyamuyun gidrouzeligacha kirish yo'li qurilishi to'g'risidagi ma'lumot berilgan. Tuyamuyun gidrouzeli qurilishi tugallanishi munosabati bilan Amudaryoning to'sib qo'yilishi boshlandi, bu esa Sharlauk pristanidan Qoraqalpog'istonning janubiy tumanlariga xalq xo'jaligi tovarlarini suv orqali tashish amalda to'xtatilishiga olib keladi. Ushbu uchastkada yuklarni avtomobil transportida tashishda 13 km uzunlikdagi To'rtko'l-Dul-Dul avtomobil yo'lidan Tuyamuyun gidrouzeliga kirish yo'lining yo'qligi to'sqinlik qilmoqda¹⁰⁷.

Qoraqalpog'iston suv qurilish korxonasi jamoasi 1981-yil uchun olgan sotsialistik majburiyatini muddatidan avval bajarib, 1981-yil 20-dekabr holatiga 1 mln. so'm miqdoridagi qurilish montaj ishlarini bajardi. Ulardan eng yirigi Quvanch jarma kanalining 35 km uzunlikdagi oralig'ini kemalar qatnovi uchun kengaytirishdan iborat bo'ldi¹⁰⁸.

Qishloq xo'jalik, irrigatsiya-melioratsiya va paxtachilik siyosatidagi illatlar Orol fojiasida yanada to'laroq o'z ifodasini topdi. Yangi yerlarni o'zlashtirishning ekstensiv usullariga, paxta maydonlarini muttasil kengaytirib borishga amal qilinishi natijasida Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida daryo suvlari yo'l qo'yib bo'lmas darajada kamayib ketdi, bu suv amalda ichish uchun yaroqsiz bo'lib qoldi, bu esa yuqumli kasalliklarning ko'payishiga imkon yaratdi. Suv sathining pasayishi suv transportiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdiki 1980-yillar o'rtalaridan boshlab, endi dengiz va daryolarda bu tizim faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi.

¹⁰⁷ ҚРМДА, Р-551 фонд, 2-рўйхат, 3860-иш, 155-варақ.

¹⁰⁸ ҚРМДА, Р-551 фонд, 2-рўйхат, 4387-иш, 31-варақ.

XULOSA

Tadqiqot yakunida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Suv transporti tarixning iqtisodiy bo'g'inini o'rganishda ham muhim o'rin tutadi. Iqtisodiy tarix har qanday siyosiy organizm tarixining asosiy jihatlaridan biridir. So'nggi paytlarda olimlar va keng jamoatchilikning ushbu muammoga qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Bu tarixning turli davrlarida inson ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanilgan vositalar va obyektlar yig'indisini aniqlash uchun ham muhim sanaladi. Orol flotiliyasi faoliyatining tarixiy tajribasini o'rganish bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda tranzit transport koridorini yaratishni ko'zlamoqda, bu esa ularga dengiz portlariga chiqish va qadimiy Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash imkonini beradi.

2. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Orol flotiliyasi faoliyati davrida daryo portining ilk manzilgohlari vujudga keladi. Umuman olganda flotiliya Xorazm vohasining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ancha faol qatnashganligini quzatish mumkin. Amudaryo bo'limi tashkil topgan dastlabki yillarda esa Rossiya imperiyasi hokimiyati bo'limda o'z iqtisodiy va siyosiy mavqegini mustahkamlash maqsadida bir qancha tadbirlarni amalga oshirdi. Amudaryo flotiliyasining transport kontoralari tomonidan Xiva xonligi va Amudaryo bo'limidan Chorjo'ga mahalliy qayiqlarda paxta, beda urug'i, teri, gazlama, qorako'l terisi va jun mahsulotlari yuk jo'natildi.

3. Orol dengizida kema qatnovi XX asrning boshida boshlandi. Oxirgi punkti Orol dengizi stantsiyasidagi posyolok bo'lib, unda yuzlab uylar qurildi. Shu paytda Aralskda yelkanli yuk kemasi bo'lib, ayrimlari 15 ming pud yuk ko'tarish quvvatligiga ega bo'ldi. Bundan tashqari Aralskda xususiy kemasozlik korxonasi, «Xiva» aksiyadorlik jamiyati paydo bo'lib, uning maqsadi Chorjo'y, Xiva xonligi va Aralsk oralig'ida aloqani ta'minlash bo'ldi. Bu jamiyat Aralsk stantsiyasi bilan Mo'ynoq orasida aloqani ta'minladi.

4. Xorazm vohasini tashqi dunyo bilan bog'lashda Amudaryo va Orol dengizi orqali amalga oshirilgan suv yo'lining xizmati alohida edi. Asrlar davomida Amudaryo va uning tarmoqlari, ko'llar, kanallar va ariqlar orqali kemalar, qayiqlar yordamida ichki va tashqi muhit bilan aloqa o'rnatilgan edi. Butun Xorazm vohasi uchun Amudaryo flotiliyasining tashkil etilishi katta progressiv ahamiyatga ega bo'lib, vohaga temir yo'lga chiqish imkonini berdi va shu tariqa bu hududni Markaziy Rossiya bilan bog'ladi. Amudaryo bo'limi shaharlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri xavfsiz yo'llar paydo bo'ldi.

5. Orol dengizi va Amudaryoda yuk tashish bilan harbiy flotiliyadan tashqari shaxsiy kemalarning egalari ham shug'ullandi. Xo'jayinlari Volgabo'yi savdogarlari Sirotkin va Lapshin bo'lgan «Xiva» jamiyati Orol dengizida 5 ta o'zi yurar kema, 5 ta yelkanli va 4 ta yog'ochli barjalarga ega bo'ldi. Amudaryo harbiy flotiliyasi 1920 yil aprelda Orol flotiliyasi tarkibiga qo'shib olindi. Amudaryo floti ham avvalo, hukumat manfaatlari yo'lida tashkil etilgan bo'lsa-da, keyingi faoliyatida aholining manfaatlari yo'lida ish olib borganligini ko'rish mumkin.

Biroq unda ishlovchi quyi bo'g'in vakillariga e'tibor berilmasligi oqibatida qator muammolar kelib chiqqan.

6. Qoraqalpog'iston xalqlarining boshqa mintaqalar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari va yaqinlashuvida respublikani yagona xomashyo bozori bilan bog'lagan transport katta rol o'ynadi. Yangidan yo'llar qurildi, vohani rivojlantirish uchun alohida qarorlar qabul qilindi. Respublika iqtisodiyoti va transportining yuksalishi bilan aholining harakatchanligi oshdi. Qoraqalpog'iston urushdan oldin ham boshqa qardosh respublikalar bilan quruqlik, suv va havo orqali mustahkam bog'langan edi. O'rta Osiyo kemachiligi paraxodlarida yuk hajmi ortgan. Shu vaqtda O'rta Osiyo respublikalarida yetishtirilgan paxta xomashyosi Orol dengizi orqali Markaziy rayonlarga jo'natildi. Amudaryoda suzish uchun flot kemalari mahalliy sharoitga moslashtirildi.

7. Janubiy Orol baliqchilari Orol dengizida ovlanadigan baliqning to'rtidan uch qismini yetkazib berdi. Baliqning asosiy qismi Orol portiga yuborilib qolgan qismi Mo'ynoq tumanidagi 5 ta baliq zavodida qayta ishlandi. Ularda asosan qo'l mehnatidan foydalanilgan. Mahsulotning 80 % ni tuzlangan baliq tashkil qildi. Baliqchilar uchun uni saqlaydigan joylarning yetishmasligi, maxsus asbob uskunalarini yetishmasligi muammo edi. Shunday og'ir sharoitlarga qaramasdan baliq zavodlari ishchilari staxanovchilar belgilangan rejalarini ortig'i bilan bajargan.

8. Urush yillarida Qoraqalpog'istondagi barcha xizmatga yaroqli kemalardan to'liq foydalanildi. Port va (pristan'lar) bandargohlar daryo transportida alohida o'rin egalladi. Urushning boshlanishi bilan butun Orol suv yo'li faoliyati harbiylashtirildi. Frontga ketgan dengizchilar va kema jamoasi o'rnini ayollar va yosh bolalar egalladi. Urush yillarida respublika transporti va aloqasi rivojlandi. Qo'shinlar va yuklar daryo va dengiz transportida Amudaryo va Orol dengizi orqali tashilgan. Respublika daryo floti umumiy yuk ko'tarish quvvati 20,7 ming tonna bo'lgan 79 ta mexanizatsiyalashgan va 228 ta mexanizatsiyalashgan bo'lmagan kemalardan iborat edi.

19. Urushdan keyingi davrda yoqilg'i, port mexanizmlari, ko'plab ehtiyot qismlar va flotni ta'mirlash uchun zarur bo'lgan metallar yetishmasdi. Yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj katta edi. Ammo bu qiyinchiliklarni yengib o'tib, kemalar brigadalari, yuk ko'taruvchilar guruhi yillik rejalarini muvaffaqiyatli uddalab, O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston paxtakorlarining talablarini bajardi. Dastlabki davrlarda jami 300 ming tonnadan ortiq xalq xo'jaligi yuklari tashildi.

10. 1959-1965 yillarda xavfsiz navigatsiya uchun kurash olib borildi. Bu davrda Amudaryoning chuqurlashtirish floti to'qqizta yangi yuqori samarali snaryadlar bilan to'ldirildi. Orol dengizida "Leninskaya Kuznitsa" zavodi tomonidan qurilgan va mahalliy kemasozlik zavodida yig'ilgan yer nasoslari ishga tushirildi. O'rta Osiyo respublikalarida ekin maydonlarining kengayishi bilan daryodan ko'proq suv paxta dalalariga yuborildi. Natijada daryo suvining tranzit chuqurligini saqlab qolish uchun suv yo'li ishchilari portlar va pristanlarga boradigan yo'lda qum siljishlarini yo'q qilishda katta kuch va samaradorlikni talab qilgan

11. Orol dengizi suvining sathi Amudaryo va Sirdaryo suvining rejimi bilan bog'liqligidan, bu ikki daryo suvi sug'orishga qancha ko'p sarflansa, dengizda suv shuncha kamaya borgan. Ayniqsa, o'tgan asrning 60-yillaridan sug'oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi natijasida dengizga Amudaryo va Sirdaryodan quyiladigan suv miqdori yildan-yilga kamaya bordi. Oqibatda dengizda suv sathi jadal sur'atlarda pasaya boshladi. Suv sathining pasayishi suv transportiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdiki 1980-yillar o'rtalaridan boshlab, endi dengiz va daryolarda bu tizim faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi.

Tadqiqot materiallari va ilmiy-nazariy xulosalar asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy o'quv yurtlaridagi Tarix mutaxassisligi magistrantlari uchun XIX asrning 70-yillari – XX asrning 80-yillarning birinchi yarmida Orol dengizi va Amudaryo suv yo'llari tarixiga oid maxsus kurslar joriy qilish;

2. Qoraqalpog'iston xalqi tarixi va madaniyati rivojida suv yo'llarining ahamiyatini aks ettiruvchi albom-kitob tayyorlash;

3. Qoraqalpog'iston respublikasi o'lkashunoslik muzeyida Qoraqalpog'iston xalqi tarixi va madaniyati rivojida suv yo'llarining ahamiyatiga doir maxsus ko'rgazmalar tashkil qilish;

4. 26-martni xalqaro Orolni qutqarish kuni sifatida nishonlash va ushbu sana munosabati bilan har yili Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya tashkil etish, uni mintaqaning Orol dengizi atrofida joylashgan shaharlarida o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12. 2019.Tar.20.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

СУЛАЙМАНОВ САЛАМАТ АРЕПБАЕВИЧ

**ИСТОРИЯ АРАЛЬСКОГО И АМУДАРЬИНСКОГО ВОДНЫХ ПУТЕЙ
(в 70-х годах XIX века –первой половине 80-х годов XX века)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора исторических наук (DSc)**

Нукус - 2023

Тема диссертации доктора наук (DSc) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей Аттестационной комиссии за № B2022.2.DSc/Tar223

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Кошанов Бахытбай Абдикеримович,
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Сарыбаев Маман Ктайбекович
доктор исторических наук, доцент

Мавланов Уктам Махмасобирович
доктор исторических наук, профессор

Шадманова Сапобар Базарбаевна
доктор исторических наук, профессор

Ведущая организация:

Ургенчский государственный университет


Защита диссертации состоится «30» ✓ 2023 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05 по присуждению ученых степеней при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч. Абдилова № 1. Тел.: (99861)223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрирована под № 32). (Адрес: г. Нукус, ул. Ч.Абдилова, №1. Тел.: (99361) 223-60-49; факс: (361) 223-60-49).

Автореферат диссертации разослан «18» ✓ 2023 года.
(реестр протокола рассылки № 2 от «18» ✓ 2023 года).




Р.Б. Баллиева
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор исторических наук, профессор


Х.М. Отегенов
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философии (PhD) по
историческим наукам, доцент


У.И. Абдуллаев
Заместитель председателя научного
семинара при научном совете по
присуждению ученых степеней,
доктор исторических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Водные пути считаются одной из важнейших коммуникационных сетей, которые связывают разные народы. В ходе развития истории народов мира они сыграли важную роль во взаимном обмене научными, культурными и техническими достижениями разных цивилизаций. Несмотря на то, что в результате технического прогресса появились современные средства передвижения, в мировой экономике водные пути и транспортные средства все еще не утратили своего значения. Они по-прежнему оказывают значительное влияние на развитие государств в современных условиях глобализации, политических и экономических изменений в мире, так как это способствует открытию широких возможностей для интеграционных процессов, экономическому и культурному сближению народов, служит своеобразному развитию государств разных регионов. Для государств особенно важным является выход к мировому океану, а также развитие водного транспорта, который является самым дешевым видом передвижения в настоящее время.

В мировой науке осуществляются крупные научные исследования, направленные на изучение формирования водных путей и их места в формировании цивилизаций, а также социально-экономического развития регионов, расположенных в бассейне водных путей. В них рассматривается значение водных путей в развитии науки и техники, изучается процесс формирования и совершенствования гидротехнических сооружений в водохранилищах, влияния водотоков на изменение экологии региона. Также рассматриваются вопросы социально-экономической политики Российской империи и Советского Союза в бассейне Аральского моря и Амударьи, её влияния на образ жизни народов Приаралья. В то же время, в транспортной отрасли идет подготовка квалифицированных кадров с современными навыками, совершенствуются нормативно-правовые документы и стандарты по использованию водных путей, путем внедрения передового опыта меняется система речного транспорта, внедряются инновационные методы и средства, упрощающие адаптацию к новым вызовам и рискам в условиях изменения климата.

В годы независимости в целях дальнейшего развития региональной экономики были осуществлены реформы, направленные на широкое внедрение современных информационных технологий и инноваций, повышение уровня качества транспортных услуг, организацию международных центров логистики и грузоперевозок, совершенствование системы использования транспортных средств на водных путях. Так как насколько важно производство в экономике, настолько необходимо и доставка продукции. Это особенно актуально, когда сегодня проблемы логистики в мире достигли своего апогея¹⁰⁹. Это обстоятельство

¹⁰⁹ Халқаро транспорт йўлакларини ривожлантириш чоралари муҳокама қилинди // <https://president.uz/uz/lists/view/5415>

обуславливает осуществления глубокого научного анализа истории колониального и современного периода, проведение исследований, направленные на развитие внешнеполитических и экономических связей.

